3-4
sinflar

BAYRAMLAR VA TADBIRLAR

SSENARIYSI

Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun

BAYOZ

BAYRAMLAR VA TADBIRLAR SSENARIYSI

(3—4- sinflar uchun)

Toshkent — 2016

UO'K: 37.014.74
74.200.58
B 24

Bayramlar va tadbirlar ssenariysi (3-4-sinflar uchun) [Ma n]: uslubiy qo'llanma/tuzuvchi Sh.Vosiqova. - Toshkent: BAYOZ, 2016. - 80 bet.

KBK 74.200.58

Tuzuvchi:
Shahnoza Vosiqova – metodist.
Taqrizchilar:
Dilorom Abdurahmonova – Toshkent shahar XTXQTMO instituti o'quv bo'lim boshlig'i, katta o'qituvchi,
Nodira Azizova — Toshkent shahar Yakkasaroy tumani 14- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Boshlang'ich ta'lim sinflarida tahsil olayotgan farzandlarimiz bilimli, keng dunyoqarashga ega bo'lish bilan birga jamoat ishlarida ham faol qatnashishlari kerak. Buning uchun o'qituvchilardan o'z ustida tinmay ishlash, izlanish va ta'lim jarayonida turli metodlarni qo'llay bilish talab etiladi. Ushbu metodik qo'llanmaga kiritilgan turli tadbir ssenariylarini o'qituvchilarimiz o'z faoliyatlarida ijodiy yondashgan holda foydalanishlari mumkin.

UO'K 37.014.74
KBK 74.200.58

ISBN 978-9943-4643-0-8

© «BAYOZ», 2016

1- oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni

«EY MEHRIBON, AZIZ USTOZ, SIZGA TA'ZIM, SIZGA E'ZOZ!»

Bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishidagi eng asosiy davr boshlang'ich sinf davridir. Bu pallada berilgan bilimlar keyingi bosqichlar uchun mustahkam poydevor vazifasini o'taydi. Ushbu poydevorning me'morlari bo'lgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni munosib uddalash uchun bor kuch-imkoniyatlarini ishga solmoqda.

Ana shu mushfiq ustozlarning kasb bayramiga bag'ishlangan «1- oktabr — Ustozlar va murabbiylar kuni» munosabati bilan o'tkaziladigan tadbirni ko'tarinki kayfiyatda tashkil etishga alohida e'tibor beriladi. Buning uchun tadbir o'tkazish joyi — maktab sahnasi o'ziga xos tarzda chiroyli qilib bezatiladi. Monitorda «Birinchi qo'ng'iroq» tadbiridan lavhalar va dars jarayonlari ustozlar haqidagi ashula asosida namoyish qilib turiladi.

1- boshlovchi:

Hayot ummonida bamisli mayoq,
Yiroqlarga nazar tashlar ustozlar.
Sodiq shogirdlarga berarkan saboq,
Doimo haq yo'lga boshlar ustozlar.

2- boshlovchi:

Eng og'ir damlarda vazminlik bilan,
Sabr ila matonat darsin o'tarlar.
Ezgulik singdirib dillarga har dam,
Kelajakka totli meva tutarlar.

3- boshlovchi:

Assalom mehmonlar, mehri ziyolar,
Yuzlari quyosh-u qalbi daryolar.
Sizga ham, tengdoshlar, dildan ehtirom,
Qo'llar ko'ksimizda, deymiz, assalom!

1- boshlovchi:

Assalomu alaykum, ustoz muallim!
Ta'limning me'mori, zarning zargari,
Muqaddas kasbingiz asrga muhr
Hayotning eng asl noyob gavhari...

2- boshlovchi: — Assalomu alaykum, fidoyi, jonkuyar, sabr-matonatga boy, qalbi ezgulikka to'la, nur-ziyo taratuvchi ustoz va murabbiylar hamda tadbirimiz mehmonlari!

3- boshlovchi: — Bugun biz o'z qalb qo'ri, ko'z nurini, mehr-muhabbatini Vatan kelajagi uchun baxshida etgan, buyuk O'zbekistonga har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashdek mas'uliyatli va sharafli vazifani zimmalariga olib, bu oliyjanob ishni sidqidildan bajarishga bel bog'lagan ustozlarimizni, muallim-u murabbiylarimizni tabriklash, e'zozlash maqsadida to'plandik.

1- boshlovchi: — Ustoz, o'qituvchi, muallim, murabbiy. Bu so'zlar bir-birini aynan takrorlamasa-da, ma'no mohiyati yaqin. Zamirida olam-olam ma'no mujassam. Eng avvalo, yozish va qanday o'qishni o'rgatgan inson — ustozdir.

2- boshlovchi: — O'qish, yozishni bilgach, kitobga ixlos uyg'otgan ham shu muallim! Yaxshi o'qisak, xursand bo'lgan, a'lodan past bilsak, darhol yeng shimargan, yuragimizga qo'l solib, yana ilm sari yo'naltirgan-da shu birinchi o'qituvchimiz!

3- boshlovchi: — Darhaqiqat, barcha orzu-umidlari o'yobini, baxtini farzandlari kamolida ko'radigan xalqimiz hamisha ustozlarni ulug'lab, ularga cheksiz hurmat-ehtiromini namoyon etib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Azaldan ustozni ulug'lar xalqim,
Ularga ezgulik tilamoq haqqim.
Bunchalar buyuksiz, bunchalar zukko,
Umringiz mo'jiza — yetmaydi aqlim.

1- boshlovchi: — Haqiqatan ham, o'quvchilarni o'z farzandidek qabul qilib, mehr ko'rsatib, ilm berishdek ulkan, zahmatli, oliyjanob vazifani ado etishda o'qituvchilarning hissasi benihoya kattadir. O'z umrini o'zgalar yo'lini oydin qilishga bag'ishlagan ustoz va murabbiylarni mash'alaga qiyoslash mumkin.

2- boshlovchi: — Aziz ustozlar, navbatni Siz tarbiyalagan, ilm-u hunar o'rgatayotgan o'quvchilarga beramiz.

1- o'quvchi:

Sizning ta'limingiz olmagan kim bor?
Siz-ku yuraklarda ilk ziyo yoqqan.
Olimmi, shoirmi va yo san'atkor,
Ilk bor sizga tomon ustoz deb boqqan.

2- o'quvchi:

Bitta harf dardida riyozat chekib,
Oqibat ko'kka ham chiqolgan inson.

Ne ajab sizlarni baxtiyor etib,
O'rnidan dast turib, bosh egsa shu on.

3- o'quvchi:

Buyuk Alisherdek lutf etgan misol,
Savod o'rgatdingiz qancha ranj bilan.
To'lab bo'larmikan bu qarzni alhol
Uzib bo'larmikan yuzta ganj bilan?!

(O'quvchilar o'zlari tayyorlagan raqsni namoyish etadi).

1- boshlovchi: — Ustoz deganda, har qaysi inson ko'nglida chuqur hurmat-ehtirom va cheksiz minnatdorchilik tuyg'ulari paydo bo'ladi.

Siz, murabbiy inson uchun,
Har bir ilm-u irfon uchun.
Rahnamosiz bizlar uchun
Qalbi daryo, muallimlar.

2- boshlovchi: — Xalqimiz naqlida: «Bir yildan keyingi hayot haqida qayg'urmoqchi bo'lsang, bug'doy ek. O'n yildan keyingi hayot haqida qayg'ursang, daraxt ek. Agar yuz yildan keyingi hayot haqida qayg'urmoqchi bo'lsang — ta'lim-tarbiya ber», — deyilgan.

Tinmas edik berib savol,
Nima to'g'ri, nima halol?
Qalbimizga joylab odob,
Yoritdingiz go'yo oftob.
Ey mehribon, aziz ustoz,
Sizga ta'zim, sizga e'zoz.

3- boshlovchi: — Hurmatli ustozlar, oldingizda turgan sharlar ichiga savollar yashiringan, marhamat, ulardan xohlaganingizni tanlab savollarga javob bersangiz *(sharlar ichiga quyidagi savollar yashiriladi).*

1. Birinchi o'qituvchingiz kim edi?
2. Nima uchun ushbu kasbni tanlagansiz?
3. Yoshligingizda qanday kasb egasi bo'lishni xohlardingiz?
4. O'quvchilik davringizdagi eng esda qolarli qiziqarli voqeani aytib bering.
5. Agar sehrli shamchiroq topib olsangiz-u, undan faqat birgina tilak so'rash kerak bo'lsa, nimani so'rardingiz?

(«Aziz ustozlar» qo'shig'i ijro qilinadi).

1- boshlovchi: — Shu o'rinda aziz ustozlarimiz va tengdoshlarimiz uchun dunyoda «O'qituvchilar va murabbiylar kuni»ni nishonlash haqida qiziqarli ma'lumotlar berib o'tsak. *(Sanalar rasmlari bilan birgalikda ekranda ko'rsatiladi).*

Avstraliyada — oktabrning so'nggi jumasi.
Braziliyada — 15- oktabr kuni.
Chexiyada — 28- mart kuni.
Misrda — 28- fevral kuni.
Germaniyada — 5- oktabr kuni.
Yamaykada — 6- may kuni.
Meksikada — 15- may kuni.
Marokashda — 28- fevral kuni.
Yangi Zellandiyada — 29- oktabr kuni.
Peruda — 6- iyul kuni.
Ispaniyada — 29- yanvar kuni.

3- boshlovchi: — Maktabimizda faoliyat yuritayotgan sport to'garaklariga sinfimiz o'quvchilari muntazam qatnashib keladi. Hozir ularning chiqishlarini tomosha qilasiz. *(Maktab sport to'garagi a'zolari ko'rgazmali chiqish qilishadi).*

1- boshlovchi: — Aziz ustozlar, sizlarni yana bir bor qutlug' ayyomingiz bilan chin qalbimizdan tabriklaymiz.

2- boshlovchi: — Sizlarga sihat-salomatlik, yosh avlodni tarbiyalashdek mashaqqatli va sharafli ishingizga muvaffaqiyat tilaymiz.

3- boshlovchi: — Shogirdlaringiz va farzandlaringiz kamolini ko'rish barchangizga nasib etsin. Shu bilan bugungi bayram tadbirimiz o'z nihoyasiga yetdi. E'tiboringiz uchun rahmat!

(O'qituvchi va o'quvchilar ijrosida raqs).

21- oktabr — «O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida» qonuni qabul qilingan kun

ONA TILIM — QALBIM QUYOSHI

1- boshlovchi:
Ona tilim, buyuklikda eng baland tog'san,
Ona tilim, suyuklikda Erami bog'san.
2- boshlovchi:
Ona tilim, jon tilim,
Yuragimning qo'rida sayrab turgan bulbulim.

1- boshlovchi: — Assalomu alaykum, aziz ustozlar, hurmatli o'quvchilar.

2- boshlovchi: — Assalomu alaykum, davramiz ishtirokchilari va mehmonlar.

1- boshlovchi: — Bugun mamlakatimizda katta tantana, ya'ni 21- oktabr — O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun.

2- boshlovchi: — Shu munosabat bilan «Ilhom chashmalari» to'garagi a'zolari «Ona tilim — qalbim quyoshi» deb nomlangan tadbir tayyorlab kelganlar. Marhamat, tinglab tomosha qiling.

1- boshlovchi: — Jahondagi juda ko'p mamlakatlar o'z davlat tiliga ega. O'zbekiston Respublikasining ham o'z davlat tili bor. Bu haqda respublikamizning asosiy Qonuni — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4- moddasida shunday yozilgan: «O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir...».

2- boshlovchi: — Davlat tili deganda, shu davlat hududida asosiy aloqa vositasi bo'lgan til tushuniladi. Barcha davlat hujjatlari davlat tilida yoziladi. Majlislar, anjumanlar, qurultoylar shu tilda olib boriladi.

1- boshlovchi: — Har bir davlat o'z tilining sofligini, uning boyib borishini ta'minlaydi va ist'emol doirasini kengaytirishga harakat qiladi, davlat tilini o'rganish va o'qitish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib beradi.

2- boshlovchi: — «O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida»gi qonuni 1989- yil 21- oktabrda qabul qilingan. Shuning uchun xalqimiz har yili ushbu kunni til bayrami sifatida nishonlaydi.

1- boshlovchi: — Bu kunda biz ona tilimiz haqida she'r va qo'shiqlar aytamiz. Tilimizning uzoq va boy tarixini eslab, uni rivojlantirishga hissa qo'shgan yozuvchilar, shoirlar, olimlar xotirasini yodga olamiz.

2- boshlovchi: — Sinfdoshlarimiz Xurshid Davronning «Ona tilim» she'rini o'qib berishadi.

1- o'quvchi:
Kelib ketdi necha dunyolar,
Kuldi hayot, yig'ladi o'lim.
Sen deb qurbon bo'ldi bobolar,
Ular ketdi, sen qolding, tilim.
2- o'quvchi:
Belanchaging uzra Koshg'ariy
Kuylab o'tdi qadim navoni
Va navqiron yaproqlaringga
Dil qonini berdi Navoiy.
3- o'quvchi:
Samarqanddan Bobur ketarkan,
Dilda bo'g'ib hasrat sasini,
Olib ketdi ona yurtidan,
Turkiy tilim, birgina seni.
4- o'quvchi:
Ammo dushman o'ldirgan botir
Tirilgandek yana qasosga,
Mangu borsan va mangu qodir
To'ldirmoqqa yerni ovozga.
5- o'quvchi:
Vatan uchun baxsh etib jonni,
Kechib olov, kirib daryoga,
Farzandlaring to'kkan har qonni
Shimirding sen o'xshab giyohga.
6- o'quvchi:
Ona tilim, omon bo'l mangu,
Sen borsan-ki men ham o'lmayman,
Tildan qolsam, seni Oybekday
Men ko'zlarim bilan so'ylayman.

2- boshlovchi: — Marhamat, navbatni yana ona tilimizni madh etuvchi she'rlarga beramiz.

«Ona tilim o'lmaydi» *(Erkin Vohidov she'ri).*

«Ona tilim» *(Mirtemir she'ri).*

«Til» *(Avaz O'tar she'ri).*

1- boshlovchi: — Davlat tili haqidagi qonun bizga nima uchun kerak?

«Bu qonun o'zligimizni saqlab qolish, tilimizni yo'qotib qo'ymaslik uchun, o'zbek degan xalqning yo'q bo'lib ketmasligi uchun kerak», — degan Erkin Vohidov.

1- o'quvchi: — Yer yuzida qancha millat, xalq, elat bo'lsa, shuncha til bor. Tilsiz xalq yo'q, xalqsiz til ham bo'lmaydi. Bular egizak tushunchalardir. Ularni bir-biridan ayirib bo'lmas. Agar ayirib qo'yilsa, ikkisi ham o'zligini yo'qotadi. Xalq boshqa bir xalqqa qo'shilib ketadi.

2- o'quvchi: — Har bir millat o'z hayoti davomida aloqa quroli sifatida, asosan, bitta tildan foydalanadi.

3- o'quvchi: — Farzandni tarbiyalab voyaga yetkazishda onaning o'rni beqiyos. Bola ilk tovushlarni, so'zlarni onasidan eshitib, o'rgangani bois, ona tili deyiladi.

2- boshlovchi: — Milliy til millatning birinchi belgisidir. Shuning uchun har bir millat istiqbol uchun kurashsa, dastlab milliy tilning sofligi, uning qadr-qimmatini tiklash uchun kurashadi. Til o'tgan avlodlar tajribasi, bilimlari natijasini kelgusi avlodlarga yetkazuvchi ko'prik hamdir. Til shaxsning o'zini o'ziga tanitadi, milliy iftixor tuyg'usini kamol toptiradi.

1- boshlovchi: — Bunga quyidagi rivoyat ham yaqqol misol bo'ladi.

(«Til qudrati» nomli rivoyat sahnalashtirib ijro etiladi).

Qadim-qadimlarda oqil va odil bir odamning suluv qizi bo'lgan ekan. Shu qizga ikkita yigitning ishqi tushibdi. Qiz ulardan qaysi biriga ko'ngil berishni bilmay qolibdi. Yigitlar qizning visoliga yetishish ilinjida yelib yuguraveribdi. Nihoyat, qiz ularga shunday debdi: «Men yurt farzandi bo'la oladigan o'g'ilga ona bo'lishni istayman. Uni qanday tarbiyalashga qodirliklaringizni bilishim kerak. Ana shunga qarab sizlarga qarorimni aytaman».

— Bu ish faqat mening qo'limdan keladi. Men unga ilm o'rgataman. Riyoziyotdan, falakiyotdan saboq beraman. Siyosat bilan shug'ullanadi. Ajnabiy tillarni egallaydi. Olamga dong taratadi, — debdi birinchi yigit.

Navbat ikkinchisiga kelganda, u aytibdi: «Avlodlardan avlodlarga meros qoladigan asosiy boylik tildir. Xalqning umr o'lchovini uning tili belgilaydi. Dunyodagi bor go'zallik va sehrli ona allasini eshitmoqlik baxti til bag'rida, maqsadimni anglagandirsan? Men o'g'limni tiliga xiyonat qilmaslikka, qo'shiq, ertak, dostonlar aytib, mana shu ona tilimiz uchun jonini ham ayamaslikka o'rgataman».

Bu gaplardan olim yigit qah-qaha urib kulib, raqibini aqli pastlikda aylabdi. «Janjallashmanglar, — debdi qiz, — yurtda ulug' donishmand bor, uning huzuriga boramiz. Hammasi o'sha joyda hal qilinadi. Uning hukmi mening uchun qonun bo'ladi».

8- dekabr — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni

QOMUSIMIZ — BAXTIMIZ

(Gullar bilan bayramona bezatilgan sahna markaziga Konstitutsiya kitobining kattalashtirilgan nusxasi osiladi. Huquqni himoya qilish idoralari vakillari, mehmonlar taklif etiladi. O'zbekiston Respublikasi madhiyasi yangraydi).

1- boshlovchi:

Vatan-ona so'zi naqadar laziz,
Sensan har narsadan mo'tabar, aziz.
Hurmatingni saqlar har bir o'g'il-qiz,
Muqaddas, mo'tabar, ulug' vatanim,
O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan.

(Uyg'un)

2- boshlovchi:

Vatanlar shodasi ichra durdona,
O'zingsan dunyoda tanho, yagona.
Qoshingda bir umr bo'lib parvona,
Vatanim, koringga yarasam deyman.

1- boshlovchi:

Senga fido bo'lsin, ming bitta jonim,
Seniki, nimaga yetsa imkonim.
Bino bo'lsang, buyuk O'zbekistonim,
G'ishtdek devoringga yarasam deyman.

(Ahmad Xo'ja)

2- boshlovchi: — Hurmatli ustozlar, aziz bilim ahli va qadrli mehmonlar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunga bag'ishlab o'tkazilayotgan bayram tadbiriga xush kelibsizlar.

1- boshlovchi: — Hozir davramizga huquqshunos mehmonlarimizni taklif etamiz. *(Huquqshunoslarga so'z beriladi).*

2- boshlovchi:

Men nechun sevaman O'zbekistonni
Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo.
Nechun vatan deya yer-u osmonni
Muqaddas atayman, atayman tanho.

(Abdulla Oripov)

1- o'quvchi: — Biz O'zbekiston fuqarosimiz, buni e'tirof etarkanmiz, qalbimiz faxr va quvonchga to'ladi. Chunki O'zbekiston dunyoda qiyosi yo'q go'zal va betakror mamlakatdir.

2- o'quvchi: — Bunday vatanda tug'ilish, uning tabarruk ne'matlaridan bahramand bo'lib voyaga yetish, jahonni lol etgan buyuk insonlarga munosib vorislik hammaga ham nasib etavermaydigan ulkan baxt, tengsiz saodatdir.

3- o'quvchi: — O'zbekiston fuqaroligining huquqiy asoslari mamlakatimiz Konstitutsiyasi, fuqarolik kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida belgilab berilgan.

4- o'quvchi: — «Fuqaro» so'zi grajdanlik ma'nosini anglatadi. «Grajdan» lotincha so'z bo'lib, huquqiy jihatdan biron-bir davlatga mansublikni bildiradi.

5- o'quvchi: — Qadimda «fuqaro» so'zi o'rnida «tabaa», «raiyat» kabi so'zlar ko'proq kishining inson sifatidagi huquqi va burchini, davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyatini his etishi ma'nosida ham ishlatilgan.

6- o'quvchi: — O'zbekiston fuqarosi bo'lish bizga faqat g'urur, iftixor baxsh etibgina qolmay, zimmamizga yuksak mas'uliyat yuklaydi. Chunki mamlakatimizning bugungi taraqqiyoti, kelajak taqdiri, uning dunyodagi o'rni va nufuzini mustahkamlab borish biz — O'zbekiston fuqarolarining muqaddas burchimizdir.

7- o'quvchi: — Fuqarolik hissi vatanparvarlik fazilatini shakllantirishda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. O'zining fuqarolik burchini chuqur his qilgan odam mamlakat qonunlarini hurmat qilib, ularga qat'iy amal qiladi, qonunlarning har bandida o'z xalqining irodasini his etadi.

8- o'quvchi: — Fuqarolik hissi bilan yashash hamisha ongli va faol harakat qilishni, shaxsiy manfaatlarni vatan va xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirishni talab etadi. Fuqarolik hissini tuygan odam mahallasi, shahar-u qishlog'i, mamlakati taqdirini o'z taqdiri bilan bog'laydi. Prezidentimiz ta'biricha, doimo «Elim deb, yurtim deb yonib yashaydi».

9- o'quvchi: — Ongli fuqaro jamiyat hayotidagi voqealarda chuqur o'ylab, fikrlab ishtirok etadigan, nafaqat o'z manfaati yoki o'zi mansub bo'lgan guruh yoki toifa manfaatini, balki xalq va vatan manfaatini ko'zlaydigan fuqarodir.

10- o'quvchi: — Irodani tarbiyalash his-tuyg'u va orzu-istaklarni aniq bir maqsadga yo'naltirish, o'tkinchi istak va mayllarni yengib, ruh va vujudni chiniqtirib borishdan iborat. Buning uchun doimo mashq qilish, ko'p o'qish, qiyinchiliklardan cho'chimaslik, ularni sabr-toqat bilan yengib borish kerak.

11- o'quvchi: — Shoirimiz G'afur G'ulom aytganidek,
«A'lo mamlakatning a'lo farzandi
Bilib qo'yki, seni vatan kutadi».

12- o'quvchi: — Xalq deb, u yoki bu davlatdagi barcha fuqarolarga aytiladi. Xalq — davlatning yetakchi kuchi, jamiyatda yashaydigan insonlardir.

13- o'quvchi: — Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir.

O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi. *(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 7- modda).*

14- o'quvchi:
O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston,
Dostonlarda bitgan guliston.
«O'zbekiston» deya atalur.
Uni sevib el tilga olur.

(Hamid Olimjon)

15- o'quvchi: — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, Respublika prezidenti lavozimiga 35 yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin.

16- o'quvchi: — O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi. *(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 89- modda).*

17- o'quvchi:
Xalqparvar Yurtboshim, millatim faxri,
Ertasin o'ylaydi o'z bolalarin.
Ilm-u ma'rifatda bir quyosh bo'lib,
Nurga chulg'amoqda gul-lolalarin.

18- o'quvchi: — Biz hurmatli va muhtaram Prezidentimiz Islom Karimovga barcha o'quvchi o'g'il-qizlari, O'zbekistonning ma'rifatga chanqoq yoshlari nomidan bizlarga qarataayotgan alohida mehr-muhabbati, g'amxo'rligi hamda e'tibor uchun tashakkurlarimizni izhor etamiz. Barchamiz Vatanimiz, xalqimiz va hurmatli Yurtboshimiz oldidagi farzandlik burch va vazifalarimizni a'lo baholarga o'qishimiz, turli sohalardagi yutuqlarimiz bilan, albatta, ado etajakmiz!

Hamma:
Ona O'zbekiston kelajagimiz,
A'lo o'qishdir bizning burchimiz.
1- boshlovchi:
Istiqlol bu — istiqbol
Nurli hayot degani.
Qo'rg'on butun, el-yurt tinch
Vatan obod degani.
2- boshlovchi:
Ulg'ayarman, shu niyat
Bo'lsin mening keragim.
Istiqbolga munosib
Farzand bo'lmoq tilagim.

(O'quvchilar Qambar Otaning «Baxt qomusi», Dilshod Rajabning «Bizning bosh qomus kitob» she'rlarini navbat bilan aytadilar).

1- boshlovchi: — Prezidentimiz «Ona to'g'risida, uning farzandi to'g'risida g'amxo'rlik qilish davlatimizning muqaddas burchidir», deya alohida ta'kidlaydilar. Buni mamlakatimiz istiqlolga erishgach, turli yillarning nomlanishida ham ko'rishimiz mumkin.

1- o'quvchi: — Har bir bola o'z ismiga, millatiga ega bo'lish hamda o'z ota-onasini bilish va ularning vasiyligi huquqlariga ega. *(«Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyadan, 7- modda).*

2- o'quvchi:
Maktabimiz bog'iga
O'tkazdik biz yosh nihol.
Parvarishlab qaradik
Nihol ko'rmasin zavol.
3- o'quvchi:
Biz ham nihol singari
O'smoqdamiz erkin, shod.
Faxrlanar biz bilan
Ona-Vatan umrbod.
4- o'quvchi:
Ota va onamizning
Bizlar ko'rar ko'zimiz
Ona O'zbekistonning
Kelajagi — o'zimiz.

5- o'quvchi: — Bizning huquqlarimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida to'liq ko'rsatilgan. Har bir inson o'zi va bolalarining xavfsizligini ta'minlash huquqiga ega. U xavfsiz muhitda yashashga haqli.

6- o'quvchi: — Hammamiz yaxshi hayot kechirish huquqiga egamiz. Biz yaxshi yashashimiz, dam olishimiz uchun kiyim-kechak, daftar, qalam va barcha kerakli narsalarga ega bo'lishga haqlimiz.

7- o'quvchi: — Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir. *(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 24- modda).*

8- o'quvchi: — Biz kasalliklardan davolanish huquqiga ham egamiz. Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. *(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 40- modda).*

9- o'quvchi: — Har birimiz dam olish huquqiga egamiz. Aks holda, biz o'z burchlarimizni bajarishga kuch topa olmay qolamiz.

10- o'quvchi: — Bolalar ta'lim olish (ya'ni maktabda o'qish) huquqiga egadirlar. Har kim bilim olish huquqiga ega. *(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 41- modda).*

11- o'quvchi: — Huquqlar o'z navbatida burchlarimizni eslatib turadi, a'lo baholarga o'qish — har bir o'quvchining asosiy burchidir.

12- o'quvchi: — Shu kabi atrof-muhitni, Ona tabiatimizni, qushlar va hayvonlarni asrab-avaylash ham bizning burchimizdir. Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar. *(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 50- modda).*

13- o'quvchi: — Jamiyat uchun zararli va qonun bilan ta'qiqlangan xatti-harakatlar huquqbuzarlik deyiladi.

(Sahna ko'rinishi).

1. Aziza magnitofonning ovozini baland ko'tarib taqsga tushadi va qo'shnilarining tinchini buzadi. Qo'shnilar bir-ikki marta ogohlantirishadi.

2. Sardor o'z o'rtog'i Saidni bir-ikki marotaba baland ovozda chaqiradi. Said javob bermagach, derazasiga tosh otib sindirib qo'yadi.

3. Elbek sinf partasiga, maktab devoriga rasmlar chizib ketadi.

2- boshlovchi: — Ha, aziz o'quvchilar, biz o'z huquqlarimizni bilish bilan birga, boshqalarning huquqlarini ham hurmat qilishimiz kerak, aks holda, yuqoridagi kabi huquqbuzarlik va ko'ngilsiz voqealarga duch kelishimiz mumkin.

1- boshlovchi: — Davlatimiz tomonidan o'rnatilgan barcha uchun majburiy qoidalar, qonunlar mavjud ekanligini va bu qonunlarning asosiy vazifasi fuqarolarni himoyalashdan iboratligini barchamiz yaxshi bilamiz.

2- boshlovchi: — Zero, biz o'z Vatanimizni chin dildan sevamiz va u bilan faxrlanamiz. Vatanimizga bo'lgan muhabbatimiz esa vatanparvarlik belgisidir. Biz — O'zbekistonning har bir fuqarosi ona yurtimizning ravnaqi va nurli kelajagi uchun mas'ulmiz.

1- boshlovchi: — Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: «Buyuk bobolarimizning ulug' niyatlari va ishlarini davom ettirishga burchlimiz».

2- boshlovchi: — Shuning bilan bugungi tadbirimiz o'z nihoyasiga yetdi. Xayr, salomat bo'ling!

BIZLAR KICHIK ASKARLAR

(Bayramona bezatilgan sahna. To'rda Vatanimiz himoyachilari, davlatimiz qurolli kuchlari aks etgan plakatlar va «Mardlar qo'riqlaydi Vatanni!», «14- yanvar — Vatan himoyachilari kuni» singari shiorlar osilgan. Ichki ishlar xodimlari, mahalla posbonlari taklif etilgan. Marsh sadolari ostida ikki boshlovchi sahnaga chiqadi).

1- boshlovchi: — Assalomu alaykum, osuda hayotimizning posbonlari, hurmatli otaxonlar, mehri ummon onaxonlar, ustoz-murabbiylar! Sizni bugungi davramizning aziz mehmoni sifatida ko'rib turganimizdan juda xursandmiz.

2- boshlovchi: — Biz bugun 14- yanvar — Vatan himoyachilari kunini nishonlash maqsadida ushbu koshonaga yig'ildik. E'tiboringizga «Bizlar — kichik askarlar» mavzusidagi tadbirni havola qilamiz.

1- boshlovchi: — Dunyoda «Vatan» so'zidan aziz va yurakka yaqin kalom topilmagani kabi, vatan himoyachisi bo'lishdan ortiq shon-sharaf ham yo'q. Mazkur tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, asrlar osha ajdodlarimiz o'gitlarida, xalqimizning bugungi bunyodkorlik ishlarida yashab kelmoqda.

2- boshlovchi: — Bu bayram — el-yurtga sadoqat bayrami. Qurolli Kuchlarimiz mamlakatimiz mustaqilligi, suvereniteti va hududiy yaxlitligining, kelajagi buyuk davlat barpo etayotgan O'zbekiston fuqarolarining tinch-osoyishta hayoti, bunyodkorlik yo'lidagi mehnati xavfsizligining kafolatidir.

1- boshlovchi: — Vatan himoyachisi deganda ko'z o'ngingizda kimlar gavdalanadi?

1- o'quvchi: — Men muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan akamni ko'z oldimga keltiraman.

2- o'quvchi: — Kursantlarga harbiy bilim berib kelayotgan dadamni birinchi navbatda eslayman.

3- o'quvchi: — Hozirgi kunda nafaqadagi bobom ham vatan himoyachisi bo'lgan.

4- o'quvchi: — Vatan himoyachisi deganda ko'z o'ngimizda, eng avvalo, qomatiga harbiy libos yarashgan, tug'ilgan yurti va oq sut bergan xalqini jondan sevuvchi, zamonaviy harbiy

bilim va ko'nikmalarga ega, tinchlik va barqarorlikni saqlashdek oliyjanob maqsad yo'lida har qanday jasoratga tayyor mard va botir o'g'lonlar namoyon bo'ladi.

1- boshlovchi: — Har birimiz yaxshi xulq va a'lo baholarimiz bilan vatanga sodiq farzand ekanligimizni ko'rsatamiz. Hozirgi videorolikda ham bunga guvoh bo'lamiz.

(«Vatanimga xizmat qilaman» videoroligi namoyish etiladi).

2- boshlovchi: — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52- moddasida «O'zbekiston Respublikasini himoya qilish — O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar», deyilgan.

1- boshlovchi: — Vatan, vatan himoyasi haqida shoirlar ko'p she'rlar bitgan. O'quvchilarimiz yod olgan ana shunday she'rlarni aytishadi.

(Ular shoir Rauf Tolibning «O'zbek askari so'zi» nomli she'rini o'qishadi).

1- o'quvchi:
Men askarman, doimo
Hushyorlik menga qurol.
Darrov sezaman, hatto
Shitirlasa, gar shamol.

2- o'quvchi:
Axir ona-Vatanim
Tikkan menga ko'zini,
Fido etib bu jonim,
Oqlayman yurt tuzini.

3- o'quvchi:
Qo'riqlayman el tinchin,
Tonglarning kulgusini.
Keksalar baxt, sevinchin,
Go'daklar kelgusini.

4- o'quvchi:
— Mustaqil ona-Vatan
Mening ko'z qarog'imda.
Axir shu yurt, shu chaman,
O'stirdi quchog'ida.

1- boshlovchi: — Askar — mard, jasur, epchil, kuchli yigit degani. Sinfimizning o'g'lonlari Vatanimizning bo'lajak posbonlaridir. Ular hozir jasur askar bo'lish orzusida.

2- boshlovchi: — Ular ishtirokidagi sahna ko'rinishini tomosha qiling.

(2010- yil 12- yanvarda poytaxtimizda ochilgan «Vatanga qasamyod» monumentining surati oldida o'g'il bolalar davlatimiz timsoli — bayrog'imizni o'pib, Vatan himoyasi uchun, qutlug' zaminning har qarich tuprog'ini asrash uchun tayyorman, deb tiz cho'kib qasamyod qilishadi. Sahna ko'rinishi tugagach, bo'lajak askarlar O'zbekiston xalq shoiri To'ra Sulaymonning «Askarlar» nomli jangovar qo'shig'ini aytib chiqib ketadilar).

1- boshlovchi: — Bugungi kunda nafaqat mard yigitlar, balki jasoratli qizlar ham Vatan himoyasi, el kori uchun bel bog'lab xizmat qilmoqda. Ular haqida sinfimiz qizlari she'r yod olishgan. Marhamat!

1- o'quvchi:

To'marisning avlodlari asli sizlar,
Oybarchinday shijoatli, shahdli qizlar.
Qasamyodga sodiq qutlug' ahdli sizlar,
El posboni libosini kiygan qizlar.

2- o'quvchi:

Baxtlisizlar kun-tun elga tinchlik so'rab,
Lekin doim yurolmaysiz o'ynab-yayrab.
Yurtni ko'proq sevgim kelar sizga qarab,
El posboni libosini kiygan qizlar.

3- o'quvchi:

Yelkangizda yulduzchalar porlab turar,
Sizni mudom yorug'likka chorlab turar.
Siz kulganda osoyishta olam kular
El posboni libosini kiygan qizlar.

(«Ko'pkari» raqsi).

1- boshlovchi: — Biz To'maris, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi dovyurak sarkardalarning vorislarimiz. Ishonch bilan aytamizki, bobolarimizga munosib, Vatanimizga sodiq farzand bo'lamiz.

2- boshlovchi: — Tadbirimizga tashrif buyurgan ichki ishlar xodimlariga so'z navbatini beramiz. *(Ular ogohlik, tinchlikning qadriga yetish kerakligi haqida gapirishadi).*

1- boshlovchi: — Bayram tadbirimiz ham nihoyasiga yetdi. Barchangizni mamlakatimiz hayotidagi qutlug' sana — Vatan himoyachilari kuni bilan chin qalbdan yana bir bor muborakbod etamiz.

2- boshlovchi: — Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, xalqimiz omon bo'lsin.

KELAJAKDA ASKAR BO'LAMIZ, QO'RIQLAYMIZ ONA VATANNI!

Marsh ohangidagi musiqa sadolari ostida sahnaga saf tortishib o'quvchilar va boshlovchilar chiqishadi. Tadbir Safar Barnoyevning «O'zbekiston posbonlari» she'ri bilan boshlanadi.

Botirlarni kuylab kelgan,
Elning ertak, dostonlari.
Har so'zini bilar dildan,
O'zbekiston posbonlari,
O'zbekiston posbonlari.

Jasurlikda yo'qdir taraf,
Farzandim der, sarbonlari.
Xizmat qilish deydi sharaf —
O'zbekiston posbonlari,
O'zbekiston posbonlari.

1- boshlovchi: — Assalomu alaykum, hurmatli ustozlar, qadrli mehmonlar!

2- boshlovchi: — Aziz ota-onalar hamda o'quvchilar!

1- boshlovchi: — Bugungi qutlug' ayyom munosabati bilan o'tkazilayotgan tantanali tadbirimizga *(hamma baravariga)* xush kelibsiz!

(O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi yangraydi. Barcha unga jo'r bo'ladi).

2- boshlovchi: — Vatan — muqaddas dargoh. Uning har bir qarichi biz uchun azizdir. Shu yurtda tug'ilib, o'sib, shu yurtda kamol topgan zot borki, umr bo'yi unga nisbatan buyuk muhabbat bilan yashaydi.

1- boshlovchi: — Bu jannatmakon diyorda ne-ne ulug' zotlar o'tmagan. Ularning Vatan ravnaqiga qo'shgan hissalari ham dunyoga mashhur. Biz Mirzo Ulug'bek, Xorazmiy, Beruniy, Farg'oniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur kabi bobolarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Ularning qoldirgan boy merosini o'qib-o'rganamiz. Nafaqat biz, balki dunyo ilm ahli ham ularning zakovatiga qoyil qolishgan.

2- boshlovchi: — «Tinch elning bog'i gullar», deydi donishmandlarimiz. Shukrona aytamiz: Vatanimiz tinch, yurtimiz obod. Osoyishtalik tufayli kundan kunga rivojlanib borayotgan davlatimiz jahonga yuz tutmoqda. Dunyo ahli bugun O'zbekistonga, shu zaminda yashovchilarga havas bilan qarashadi.

1- boshlovchi: — Ha, to'g'ri aytasiz, tinchlik – ulug' ne'mat. Tinchlik bor joyda bolalar kulgusi jaranglab turadi. Hayot gullab-yashnaydi. Bizning mana shunday osoyishtaligimizni qo'riqlayotgan harbiy askarlarimizga bugun tasannolar aytamiz. Ular tufayli yurtimizda osuda tonglar otmoqda.

2- boshlovchi: — Bugun Vatan himoyachilari kuni. Shu qutlug' kunni siz azizlar bilan bayram qilish uchun bu yerga yig'ilganmiz. Tadbirimizga o'quvchilarimiz alohida tayyorgarlik ko'rishgan. Hozir navbatni ularga beramiz.

(O'quvchilar ijrosida Vatan haqida qo'shiq kuylanadi. Ular ushbu bayram, yurtimiz tinchligi yo'lida amalga oshirilayotgan ezgu ishlar borasida so'zlaydilar).

1- o'quvchi: — 14- yanvar — Vatan himoyachilari kuni sifatida mustaqil O'zbekistonimizning barcha go'shalarida, harbiy qismlarda, maktab, oliy o'quv yurtlarida bayram qilinadi.

2- o'quvchi: — O'zbekiston Qurolli Kuchlari xavfsizligimiz tayanchi hisoblanadi. U quruqlikdagi qo'shinlar, harbiy havo kuchlari, havo hujumidan mudofaa qo'shinlari, chegara, maxsus va muhandislik qo'shinlari hamda milliy gvardiya, ya'ni saralangan qo'shinlardan iboratdir.

3- o'quvchi: — Bosh qomusimizning 125- moddasida O'zbekiston Qurolli Kuchlari aholining tinch hayoti va xavfsizligini ta'minlash uchun tuzilganligi haqida yozib qo'yilgan.

4- o'quvchi: — 126- moddasida esa O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega, deya ta'kidlanadi. Demak, Vatanimiz mudofaa qudrati yurtimiz va xalqimizning osoyishtaligini ko'zlaydi, ona tuprog'imizni yot ko'zlardan himoya qiladi.

5- o'quvchi: — Bugun Qurolli Kuchlar safida bizning mard, jasur akalarimiz o'z yigitlik burchini o'tashmoqda. Ular tufayli yurtimizda osoyishtalik hukmron.

6- o'quvchi: — Sharaf bilan o'z yigitlik burchini ado etayotgan harbiylarimizga bizning chindan-da havasimiz keladi. Katta bo'lsak biz ham, albatta, ular qatori milliy armiyamiz safida xizmat qilamiz. «Armiya» — lotincha so'zdan olingan bo'lib, har bir davlatning quruqlikdagi qo'shinlari ma'nosini anglatadi.

7- o'quvchi: — Biz sarkardalar avlodidanmiz. Kelajakda buyuk Sohibqiron bobomiz Amir Temurdek mard, jasur, eli va yurtiga sodiq, sheryurak Jaloliddin Manguberdidek vatanparvar insonlar bo'lib kamol topamiz.

8- o'quvchi:

Kelajakda askar bo'lamiz,
Qo'riqlaymiz ona Vatanni.
Sarhadlarda sergak turamiz,
Asrab shu yurt, bog'-u chamanni.

9- o'quvchi:

Sarkardalar avlodidanmiz,
Sharaflarga, shonlarga loyiq.
Temur bobom, Jaloliddindek,
Qalbda Vatan mehri har nedan ortiq.

(O'quvchilar O'zbekistonni, tinchlikni madh etib qo'shiq kuylaydilar).

1- boshlovchi: — Tinchlik xalqimiz uchun berilgan ulug' ne'matdir. Bu kun dunyoning turli burchaklarida o'q ovozi eshitilib, tinch aholi hayotdan ko'z yumayotgan bir paytda yurtimizda osoyishtalik hukmronligi uchun ham shukrona aytamiz.

2- boshlovchi: — Notinch va qashshoq davlatlarda bolalar ochlikdan nobud bo'layotgan, bema'ni urush qurboniga aylanayotgan bugungi kunda maktab, bog'chalarda bolajonlarning shodon qiyqirig'i, kulgusi yangrab turibdi. Bu ham biz e'zozlagan tinchlik tufaylidir.

(O'quvchilar Vatan, tinchlik haqidagi maqollardan namunalar aytishadi).

- Vatan — muqaddas, uning har qarichi — aziz.
- Vataning tinch — sen tinch.
- Tinchlik bilan el ko'karar,

Yomg'ir bilan yer ko'karar.

- Ona yerning tuprog'i ona sutidek aziz.
- El qudrati — chin qudrat,

Vatan tuprog'i qimmat.

- Yurt qo'risang o'sarsan,

Qo'rimasang to'zarsan.

(Kichik sahna ko'rinishi namoyish etiladi).

1- ko'rinish.

(Ekranda chegarachi askarlar hayoti namoyish etiladi. Magnit tasmasidan ular aytgan qo'shiq ohista taralib turibdi).

Salom ona, onajonginam,
Yana sizga yozmoqdaman xat.
Salomatmi aziz otam ham,
Ukalarim yurgandir xushvaqt.
Salom ona, onajonginam...

2- ko'rinish.

So'rida ko'rpa qaviyotgan ona. Shu chog' uning oldiga o'g'li yugurib keladi va deydi:

— Oyi, oyijon! Suyunchi bering, akamdan xat keldi.

Ona: — Suyunchi sendan aylansin, bolam. Qani, tezroq ochib o'qigin-chi, akang nimalarni yozibdi. O'zi sog -omon ekanmi? Faqat shoshilmasdan o'qigin.

O'g'il: — Xo'p bo'ladi, oyijon.

(O'g'il xatni ochib o'qiydi).

«Assalomu alaykum, mehribon onajon! Sog' omon yuribsizmi? Otam, ukalarim va singillarimning sog'liqlari yaxshimi? Sizlarni juda sog'indim.

Men sog'-salomatman. Harbiy xizmatni a'lo darajada o'tayapman. Kuni kecha komandirimizdan rahmatnoma oldim. Chegarachi do'stlarim bilan Vatan osoyishtaligini qo'riqlashdek sharafli burchni ado etayotganim uchun ham qalbim g ururga to'ladi».

Ona: — Barakalla, bolam, umring uzoq bo'lsin!

O'g'il: — Oyijon, men ham katta bo'lsam, akam kabi chegarachi bo'laman. Ular kabi Vatanimizni qo'riqlayman.

Ona: — Niyatingga yet, bolam. Buning uchun maktabda a'lo baholarga o'qishing, sport bilan muntazam shug'ullanishing, qat'iyatli, chaqqon va epchil bo'lib ulg'ayishing kerak.

(O'quvchilar «Sog'lom avlod qo'shig'i»ni kuylashadi. Sport kiyimidagi o'g'il bolalar ko'rgazmali chiqishlar qilib, turli mashqlarni namoyish etishadi. Shundan so'ng ikki o'quvchi bolalar shoiri Habib Rahmatning «Botir askarcha» she'ridagi ota va o'g'il dialogini aytishadi).

Dadajon, askar akam
Qadam tashlar gurs, gurs, gurs.
Vatanimga, xalqimga
Sodiqman, deb bergan so'z.
— Shundaymi?
— Shunday!
— Men ularning ukasi,
Qanday bo'lishim kerak?
Vatan ishiga tayyor

Bo'lib turishim kerak.
— Shundaymi?
— Shunday!
Vatanimni, xalqimni
Ko'z qoramdek saqlayman.
Askar akamga o'xshab
El ishonchin oqlayman.
— Shundaymi?
— Shunday!
Ofarin, ota o'g'il,
Tilginangga bol, shakar.
Sen ham bir kun ulg'ayib,
Bo'lasan botir askar.
(O'g'il bolalar ijrosida milliy raqslarimizdan biri ijro etiladi).

1- boshlovchi: — Qadrli mehmonlar, aziz ustozlar! Barchangizga sog'lik, baxt-saodat tilagan holda bugungi Vatan himoyachilari kuni bayrami munosabati bilan o'tkazilgan tantanali kechamizga yakun yasaymiz.

2- boshlovchi: — Vatanimiz tinch, osmonimiz beg'ubor bo'lsin! Ona yurtimiz osoyishtaligini himoya qilayotgan jasur o'g'lonlarimiz doimo omon bo'lsinlar! Yana bayramlarda ko'rishguncha, xayr!

(Vatan haqidagi qo'shiq bilan tadbir poyoniga yetadi).

BUYUK ZOTGA TA'ZIM

Sinfxonasi yoki maktab zali chiroyli qilib bezatiladi. Devorga Alisher Navoiy rasmi osilib, uning atrofida shoirning asarlari haqida ma'lumotlar joylashtiriladi. O'quvchilar tomonidan Navoiy ijodiga bag'ishlab chizilgan rasmlar ham osib qo'yiladi. Musiqa sadolari ostida sahnaga boshlovchilar va tadbir ishtirokchilari chiqishadi.

O'qituvchi: — Assalomu alaykum, aziz ustozlar, hurmatli ota-onalar, maktabimizga tashrif buyurgan qadrli mehmonlar! Bugun benazir inson, buyuk alloma va daho ijodkor Alisher Navoiy bobomizning 575 yillik yoshini nishonlayapmiz. Shu munosabat bilan o'tkazilayotgan «Buyuk zotga ta'zim» deb nomlangan tadbir kechamizga xush kelibsiz!

(Minhojiddin Mirzo she'ri va Dilorom Omonullayeva musiqasiga bastalangan «Aziz bo'ston — O'zbekiston» qo'shig'i o'quvchilar jo'rligida ijro etiladi va tadbir boshlanadi).

1- boshlovchi:

Biz o'zbek yoshlari, so'z naqqoshlari,
Bu qadim Turonning tillaqoshlari,
Gohida tinch daryo, goh beboshlari
Hatto maysangga ham titroq bo'lamiz,
Vatan, biz To'maris, Shiroq bo'lamiz.

2- boshlovchi:

To'rt fasling ham gulzor, boychechak fasli,
To'rt fasling ham Vatan, bizniki asli,
Barkamol avlodning barkamol nasli,
Tog'larni yiqitar bilak bo'lamiz!
Vatan, sen deb urgan yurak bo'lamiz!

(Musiqa sadolari ostida Alisher Navoiy surati slayd orqali ko'rsatiladi).

1- boshlovchi:

Besh asrkim, nazmiy saroyni
Titratadi zanjirband bir sher.
Temur tig'i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher.

— Buyuk bobomiz Alisher Navoiy chindan ham insoniyat tarixida so'z mulkining sultoni degan nom bilan muhrlangan. Ul zot 1441- yil 9- fevralda Hirot shahrida dunyoga kelgan. Yoshligidan kitobga mehr qo'yib, odobli va zehnli bo'lib ulg'aygan.

Ko'plab g'azallar, dostonlar va ruboiylar yozgan. Bolaligidanoq Fariduddin Attorning butun boshli «Mantiq ut-tayr» asarini yodlab, iqtidori bilan ko'pchilikni lol qoldirgan.

2- boshlovchi: — Keling, endi navbatni o'rtoqlarimizga bersak, ular buyuk shoir ijodidan yod olgan g'azal va ruboiylarini aytib beradilar.

(Bir necha o'quvchi sahnaga chiqib, Alisher Navoiy ijodidan ruboiy va g'azallar, hikmatli so'zlar aytadilar).

1- o'quvchi: Jism bo'stonig'a shajar so'zdur,
Ruh ashjorig'a samar so'zdur.

2- o'quvchi: G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish.
Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg'a tikondek oshyon bo'lmas emish.

3- o'quvchi: Tilga ixtiyorsiz — elga e'tiborsiz.

4- o'quvchi:
Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a.
Tun-kuningga aylagali nurposh,
Birisin oy ayla, birisin quyosh.
So'zlaridan chekma qalam tashqari,
Xatlaridan qo'yma qadam tashqari.

5- o'quvchi: Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

6- o'quvchi: Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

(Qizlar ijrosida «Xorazmcha» raqs).

1- boshlovchi: — Bobomiz Alisher Navoiy o'zbek tili asoschisidir, to'g'rimi, o'rtoqjon?

2- boshlovchi: — Ha, albatta. Bobomiz kabi biz ham tilimizni asrab-avaylashimiz kerak. O'zbek tili davlat tili ekanligi Konstitutsiyamizda ham belgilab qo'yilgan. Marhamat, ushbu modda bilan tanishing.

(1- o'quvchi chiqib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4- moddasi bilan tanishtiradi. Slaydda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ko'rsatiladi).

(Shundan so'ng o'g'il bolalar tomonidan milliy raqs — «Andijon polkasi» ijro etiladi).

2- boshlovchi: — Endi navbat o'quvchilar tomonidan tayyorlangan «Mir Alisher va xasta odam» deb nomlangan sahna ko'rinishiga. Marhamat.

(«El desa Navoiyni» kitobidan. To'plovchi: M.Jo'rayev).

Sahna to'rida Mir Alisher Navoiy kitob mutolaa qilib o'tirganda, uning oldiga bir odam kelib, salomatligi yomonligidan shikoyat qiladi:

— Mavlono Mir Alisher, siz ko'pni ko'rgan, dono odamsiz, shoirsiz, adolatparvar amirsiz, ammo tabiblikdan xabaringiz yo'qligi juda yomon-da.

Mir Alisher Navoiy: — Qayeringiz og'riydi?

Bemor odam: — O'zim ham bilmayman, hammayerim joyim og'riydi, ammo tanamda issig'im yo'q.

Mir Alisher Navoiy: — Unday bo'lsa, bir shifosi bor. Har kuni ertalab bir namoz vaqti, peshinda bir namoz vaqti, kechqurun yana bir namoz vaqti yer chopib, qolgan paytlarda o'z kasbingizni qiling, inshoolloh, tezda tuzalib ketasiz...

Boshlovchi: — Oradan bir necha kun o'tgach, haliqi odam yana Mir Alisherning oldiga kirib kelibdi.

— Meni tanidingizmi, taqsir?

Mir Alisher Navoiy: — Tanishga tanidimku-ya, ammo salomatligingiz qalay?

Bemor odam: — Otdayman. Shoirdan ham tabib chiqar ekan-da, aytganingizni qilib, tamomila darddan xalos bo'ldim. *(Mamnun qiyofada).*

Boshlovchi: — Mana aziz do'stlar, bobomiz Mir Alisher Navoiy bilimli bo'lishi bilan birga juda zukko inson bo'lganlar. Siz ham sahna ko'rinishimizdagi bemor odamga o'xshab qolmang. Mehnat qilishdan, bilim olishdan charchamang.

(Shundan so'ng mayin nay sadosi yangraydi va davraga Dono bobo kirib keladi).

1- boshlovchi: — Assalomu alaykum, Dono bobo.

2- boshlovchi: — Yaxshi keldingizmi?

Dono bobo: — Vaalaykum assalom, bolajonlarim! Sizlarning Alisher Navoiy bobomiz qalamiga mansub she'r va g'azallar aytayotganingizni eshitib qoldim. Men ham bobomiz Navoiyning nabirasiman. U kishining ko'p kitoblarini o'qiganman.

Ul zot betakror «Xamsa»ni yaratib, o'zbek adabiy tilining shakllanishiga bebaho hissa qo'shdi. Ushbu asar besh dostonni o'zida mujassam etgan. Bular «Hayrat ul-abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ai sayyor», «Saddi Iskandariy». Bu dostonlar bilan yuqori sinflarda batafsil tanishasiz. Bugun esa men sizlarga «Farhod va Shirin» dostonining multfilmini olib kelganman. Marhamat, tomosha qiling.

(Ekranda o'quvchilarga «O'zbekfilm» ijodkorlari tomonidan yaratilgan «Farhod va Shirin» multfilmi ko'rsatiladi).

Dono bobo: — Aziz bolajonlarim, siz ham shu multfilm qahramoni — Farhoddek jasur bo'ling. O'z yurtingizni himoya

qiling. Ana endi bo'taloqlarim, kimlar chaqqon, kimlar zukko ekanligini bilib olish uchun o'quvchilarni guruhlarga ajratib olamiz.

(O'quvchilar o'qituvchi yordamida guruhlarga bo'linishadi).

1- guruh — «Chaqqonlar», 2- guruh esa — «Zukkolar».

Dono bobo: — Bolalarim, sizlarga topshiriq beraman. Unda bobomizning fazilatlarini mujassamlashtirishga harakat qiling. «Chaqqonlar» guruhi «Alisher Navoiy kim bo'lgan?», Zukkolar guruhi esa «Alloma qanday ijobiy fazilatlarga ega bo'lgan?», degan savollarga javob yozishlari kerak.

Dono bobo: — Barakalla, bolalar! Bobomiz Alisher Navoiyning juda ko'p xislatlarini bilar ekansiz. Men sizlar uchun sovg'a olib kelganman. O'ylaymanki, siz ham bobomizdek bilimdon, mehnatkash, o'zgalarga yordam beradigan, to'g'riso'z inson bo'lib yetishasiz. *(O'quvchilarga kitob sovg'a qiladi).* Endi menga ruxsat. Yana boshqa maktablarga ham borib ko'rayinchi, sizdek bilimdon bolalar bormikan, bor bo'lsa, ularga ham sovg'alarimni ulashib chiqmoqchiman. Xayr, bolalar!

Bolalar: — Rahmat, bobojon. Xayr!

1- boshlovchi: — Navbat yana o'quvchilarimizga, ular Tursunboy Adashboyev, Xurshid Davron va Abdulla Oripovlarning Alisher Navoiyga bag'ishlab yozgan she'rlaridan namunalar o'qishadi.

2- boshlovchi:

— Endi esa o'quvchilar bilimini sinab ko'rish uchun ular o'rtasida bellashuv o'tkaziladi.

O'qituvchi jumlalarning yarmini o'qiydi, o'quvchilar esa davom ettiradi.

1. Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, ...

2. Yaxshilikni bilmasang, ...

3. Olamdan g'amsiz o'tay desang, ...

4. Tilga ixtiyorsiz — ... .

5. Har nekim ko'ngilda bor, ...

6. Til bilgan — ... .

Jumlalarni tez topa olgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

O'qituvchi: — Mana, qadrli mehmonlar va ota-onalar. Bugun o'quvchilarimiz bobomiz haqida qanday bilimga ega ekanliklarini ko'rdingiz. Shu o'rinda Prezidentimiz so'zlarini yodga olmoqchiman.

(Slayd orqali ko'rsatilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi).

«Mening eng katta ishonchim — yosh avloddir. Zamonaviy bilimga ega, odobli, ilmli, ko'rsang havasing keladigan barkamol va shijoatli farzandlarimizdir. Men o'zimning taqdirimni ham,

mamlakatimiz va mustaqilligimiz taqdirini ham ana shularning qiyofasida ko'raman».

O'qituvchi: — Siz nomi dunyoga mashhur ajdodlarning avlodlarisiz! Ularning xotirasini yod etib, ularga munosib Vatan ravnaqiga hissa qo'shadigan insonlar bo'lib yetishishingiz kerak. Buning uchun ko'p o'qib, buyuk bobokalonlarimiz hayot yo'lini o'rganmog'ingiz va ulardan o'rnak olishingiz darkor. Tadbirdan shunday xulosa chiqarsak (Slayd): ***Navoiyni bilish o'zlikni bilish, Navoiyni sevish millatni sevish, Navoiyga sadoqat eng ezgu insoniy qadriyatlarga sadoqat demakdir.***

(Tadbir so'ngida tashrif buyurgan mehmonlarga, ota-onalarga so'z berilishi mumkin).

Bolalar: — Biz hamisha buyuk siymolarga ta'zim qilamiz!

O'qituvchi: — E'tiboringiz uchun rahmat, salomat bo'ling!

14- fevral — Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun

SHOH VA SHOIR

Sahna bayramona ruhda bezatilgan. To'rda Zahiriddin Muhammad Bobur portreti, shuningdek, shoir asarlari, bukletlar. Uning she'rlaridan, ruboiylaridan parchalar yozilgan plakatlar osilgan.

(Shoirning «Yaxshiliq» g'azaliga bastalangan qo'shiq yangraydi. Sahnaga ikki boshlovchi chiqib keladi).

1- boshlovchi:

— Andijon bag'ridan uchib bir yulduz,
Hindiston tojiga gavhardek qunduz.
Otash yuragida aylanar bir so'z,
Anda jon qoldiku, anda jon qoldi.

2- boshlovchi:

— Dunyo charxpalagi tinmay aylanar,
Taloto'p zamonlar o'taveradi.
Asrlar qa'ridan bir so'z ingranar,
Anda jon qoldiku, anda jon qoldi.

1- boshlovchi: — Assalomu alaykum, hurmatli ustozlar, qadrli ota-onalar va aziz o'quvchilar! Bugun biz shoh va shoir, davlat arbobi hamda buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludiga 533 yil to'lganligi munosabati bilan o'tkazilayotgan ushbu bayram kechasida to'planib turibmiz.

2- boshlovchi: — Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yil 14 fevralda Andijonda Umarshayx Mirzo xonadonida tavallud topdi. Saroyda shahzodalarga xos munosib ta'lim-tarbiya olgan Bobur otasi vafotidan so'ng 12 yoshda taxtga o'tirdi.

1- boshlovchi: — Bobur toj-taxt uchun bo'lgan urushlar tufayli Andijondan chiqib ketib, Hindistonda buyuk boburiylar sulolasiga asos soldi. Hindistonda qudratli saltanat o'rnatgan, davlatning gullab-yashnashiga katta hissa qo'shgan sevimli shoirimiz 1530 yil Agra shahrida olamdan o'tdi.

2- boshlovchi: — U umri davomida «Boburnoma», «Mubbayyin al-zakot» (Zakot bayoni), «Xatti Boburiy», «Harb ishi» kabi ko'plab nasriy va she'riy asarlar yaratdi.

(O'quvchilar sahnaga chiqishadi va birin-ketin Bobur ruboiylaridan aytishadi).

1- o'quvchi:

— Davron meni o'tkardi saru samondin,
Ayirdi meni bir yo'la xonu mondin.
Goh boshima tosh, goh baloyi ta'na
Nelarki boshimg'a kelmadi davrondin.

2- o'quvchi:

— Har ishda ishtob qilmag'aysan,
Bu demak murodga yetmag'aysan.

3- o'quvchi:

— Birovningkim birovdin ko'ngli qolur,
Kishi yuz so'z birla ko'nglin olur.

4- o'quvchi:

— Yod etmas emish kishini mehnatda kishi,
Shod etmash emish ko'ngulni g'urbatda kishi.
Ko'nglum bu g'aribliqda shod o'tmadi hech,
G'urbatda sevinmas emish albatta kishi.

5- o'quvchi:

— Necha nafsing'a bo'lursan tobe,
Necha umringni qilursan zoe'.

(Qo'shiq ijro etiladi. Uni o'qituvchining o'zi tanlaydi).

1- boshlovchi: — Bobur Hindistonda shoh bo'lsa-da, bir umr Vatanini, uning tuprog'ini, bag'ri keng odamlarini sog'inib yashadi.

2- boshlovchi: — U o'zga yurt toju taxtidan vatanining bir siqim tuprog'ini afzal deb bildi va shu armon bilan yashab o'tdi. Shoir g'azallarida, ruboiylarida armonga aylangan Vatan sog'inchini his etamiz.

(O'quvchilar kichik sahna ko'rinishi namoyish etadilar).

Mayin musiqa yangraydi.

Bobur taxtda o'tiribdi. Atrofidagi uch-to'rt mulozimlar bilan mamlakatdagi siyosiy ahvol, soliqlar to'g'risida suhbatlashmoqda. Shunda xos soqchi kelib bir kishi Boburning huzuriga kirish uchun izn so'rayotganini aytadi.

Bobur: — Ruxsat, huzurimga olib kelingiz!

(Notanish kishi qo'lida qovun bilan kirib keladi va ta'zim qiladi).

Kishi: — Assalomu alaykum, hazratim. (Ta'zim bajo keltiradi). Men savdogarman. Sizning huzuringizga kelishimdan maqsad Andijondan keltirishgan qovundan olib keldim. Ona yurtingizdan olib kelingan bu ne'matdan tatib ko'ring, hazratim. Zora sog'inchingizga malham bo'lsa. (Bobur sekin taxtdan tushib kelib titroq qo'llari bilan qovunni oladi. Uni uzoq hidlab yuz-ko'zlariga surtadi va o'ta g'amgin holda gapiradi).

Bobur: — Rahmat, sizga. Vatanimning xush bo'ylarini olib kelgan bu qovunda Andijon shamoliyu musaffo havosini, tabarruk tuprog'ining isini, beqiyos ekinzorlarining go'zalligini, bolaligim o'tgan go'zal vodiylar manzarasi dilkash xalqimning nafasini, ota-onam mehrini tuydim. Kindik qonim to'kilgan Vatan — mening beshigim, sog'inchim va tuganmas armonimdir. (Hazin ohangda ruboiy o'qiydi).

Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim - xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib, hind sori yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

(Magnitofon tasmasidan «Ulug'imsan, Vatanim» qo'shig'i yangraydi. Qo'shiq sadolari ostida qovun quchgan Bobur, mulozimlari, so'ngra haligi savdogar sahnani sekin-asta tark etadilar).

1- boshlovchi:

— Xalqim, buyuk o'g'ling, buyuk shoh o'g'ling,
Boburing qalbida bir armon qoldi.
Nolasi kuydirar toabad bag'ring,
Anda jon qoldiku, anda jon qoldi.

2- boshlovchi: — Zahiriddin Muhammad Bobur turk va fors tillarida samarali ijod qilgan buyuk iste'dod egasi edi. U ruboiy, tuyuq, qit'a, masnaviy, fard kabi janrlarda go'zal asarlar yaratdi. Ularni to'plab ikki — «Hindiston devoni» va «Kobul devoni»ni tuzdi. Ammo «Kobul devoni» hozirgacha topilgan emas.

1- boshlovchi: — Bobur chuqur falsafiy ma'noga ega ruboiylari bilan adabiyotimizda alohida o'rin egallaydi. Ichki kechinmalar, goho shodlik, goho g'amgin kayfiyatlarning to'rt misrada mukammal ifodalanishi uning o'tkir ruboiyshunos shoir ekanligidan dalolat beradi.

1- o'quvchi:

— Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko'rmagay yamonliq hargiz,
Har kimki yamon bo'lsa, jazo topqusidur.

2- o'quvchi:

— Ko'pdin berikim, yor-u diyorim yo'qtur,
Bir lahza-yu, bir nafas qarorim yo'qtur.
Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur.

2- boshlovchi: — Buyuk shoir Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyati o'zining nodir va badiiy qimmati bilan ham adabiyotimizda katta o'rin egallagan. «Boburnoma» esa benaho tarixiy badiiy asar sifatida dunyo miqyosida tan olingan.

1- boshlovchi: — Sevimli adibimiz Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» yoxud «Bobur», «Avlodlar dovoni», «Humoyun va Akbar» kabi tarixiy romanlari biz sevgan shoir Bobur hayoti va ijodi, Hindistonda u asos solgan qudratli saltanat vakillari — Boburiylar sulolasi haqida keng ko'lamga ega tarixiy ma'lumotlarni bera oladi. Bu asarlarni o'qir ekanmiz, buyuk shoirimizga mehrimiz yanada oshadi.

2- boshlovchi: — Hurmatli ustozlar va qadrli ota-onalar, shuning bilan shoh va shoir Bobur tavalludiga bag'ishlangan bugungi kechamiz o'z nihoyasiga yetdi. Xayr, doimo sog'u salomat bo'ling!

(Kecha Boburning «Yaxshiliq» qo'shig'ining davomi bilan yakunlanadi).

1- mart — shoira Zulfiya tavallud topgan kun

SHE'R TINGLAB, SHE'R TUZIB — SHE'RLARDA QOLDIM

Tadbir o'tkaziladigan joy sharlar va gullar bilan bezatilgan. Sahnada Zulfiyaxonim portreti. Atrofida shoira va turmush o'rtog'i Hamid Olimjon, farzandlari — Hulkar va Omon, nabirasi Ulug'bek bilan tushgan rasmlari. She'rlari tushirilgan rangli bukletlar.

(Musiqa sadolari ostida qo'llarida sharlar bilan 4- sinf o'quvchilari sahnaga chiqadilar).

Boshlovchi *(4- sinf o'qituvchisi)*: — Assalomu alaykum, aziz mehmonlar, mehri ziyoga limmo-lim ustozlar! Bilimga tashna bolajonlar! O'zbekiston xalq shoirasi, taniqli jamoat va davlat arbobi Zulfiya Isroilova tavalludi munosabati bilan siz azizlar bilan diydor ko'rishib turganimizdan xursandmiz!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014- yil 31- oktabrdagi O'zbekiston xalq shoiri «Zulfiya tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, bu kun 4- sinf o'quvchilari bayram tadbiri uyushtiradilar.

(7- sinf ijodkor o'quvchi qizi Havoxon Abdullayeva tomonidan yozilgan she'r o'qiladi).

O'quvchi:

Go'zal gulbahorning ilk kunlarida,
Isroil Degrezning xonadonida
Qizaloq tug'ildi — buyuk shoira,
Qorako'z, chiroyli, sho'x-shaddodgina.
Ismin atadilar Zulfiyaxon deb,
Qoshida yaltirar oltinsifat zeb.
Qizaloq qo'lidan tushmasdi qalam,
Qog'ozda aks etar shodlik va alam.

Boshlovchi: — O'z she'rlari, balki butun hayoti bilan o'zbek ayolining ma'naviy qiyofasini namoyon etgan shoiramiz Zulfiyaxonim hayoti va ijodiga nazar tashlaymiz. *(Sahnadagi ekranda Zulfiyaxonim oilasi, xonadoni, farzandlari tasvirlangan slaydlar namoyish etiladi).*

1- o'quvchi: — Shoiraning otasi Isroil Degrez yetti farzand ko'rdi va kenjasiga Zulfiya deb ism qo'ydi.

2- o'quvchi: — Zulfiya Isroilova xalqimizning atoqli va ardoqli vakili, O'zbekiston xalq shoirasi, shuningdek, «Nilufar» va Javoharl'al Neru nomidagi xalqaro mukofotlar sohibasidir.

3- o'quvchi: — U 1915- yil 1- martda Toshkent shahrining qadimiy Degrez mahallasida tavallud topgan.

4- o'quvchi: — Zulfiyaxonimning bolalik chog'lari bo'lat tafti anqigan xonadonda o'tdi. U doshqozon atrofida bezovta yurgan otasining ortidan ergashib, «Dada, menga qo'g'irchoq yasab bering!» deb iltimos qilardi.

5- o'quvchi: — Shoiraning onasi Xadicha aya qanchadan qancha qo'shiq va afsonalarni, doston va ertaklarni biladi.

6- o'quvchi: — Zulfiyaxonim 1996- yil 1- avgustda 81 yoshida vafot etdi.

Boshlovchi Zulfiyaning **«Amudan keldim»** she'ridan parcha o'qiydi:

Umr uzun karvon, yelkada yuki,
Goh xira, goh yorug', tonglardan o'tar.
Shu karvon yo'lida, bir azim daraxt
Baland shoxlari chirmashib o'sar.

(«Yuragimga yaqin kishilar» sahifasida o'quvchilar uning turmush o'rtog'i Hamid Olimjon haqida gapiradilar).

1- o'quvchi: — Zulfiyaxonim uchun Hamid Olimjon nafaqat umr yo'ldosh, do'st, balki ijodiy taqdirida misilsiz ahamiyatga ega inson bo'lgan.

2- o'quvchi: — Buyuk shoir va nodir insoniy fazilatlar sohibi — Hamid Olimjon Zulfiyaga hamma narsada o'rnak bo'ldi.

3- o'quvchi:

Zulfiya ko'nglini Hamidga soldi.
Go'zal hayot zavqin diliga soldi.
Lek shodligi cho'zilmay yiroq,
O'rnini qopladi, ayriliq, firoq.

4- o'quvchi: — Hamid Olimjon 1944- yil 3- iyulda yo'l-transport hodisasi oqibatida halok bo'ladi. Biroq Zulfiyaxonim uning yorqin xotirasi bilan muhabbatiga sodiq qolib, ijod qilishda davom etadi.

*(Zulfiyaning **«Lolaqizg'aldoq»** she'ri asosida sahna ko'rinishi namoyish etiladi. Sahna lolaqizg'aldoqlar maketi bilan bezatiladi).*

1- o'quvchi:

Ona turgan xonaga,
Qizi kirdi, yugurib.
Go'yo sig'may olamga,
Dedi, shoshib-ko'pirib.

2- o'quvchi:
Oyijonim, tez yuring!
Ko'rsataman qiziq gul,
Hurriyatning tomini,
Lola qoplabdi butkul.
3- o'quvchi *(ona timsolida)*:
Bilmayman, jonim qizim,
Onasidan so'ranglar.
Ruxsat bersa, chiqing-u,
Ko'zingizga qaranglar.
Boshlovchi: — Zulfiyaxonim farzandlari Hulkar va Omonga, nabirasi Ulug'bekka bag'ishlab ham she'rlar yozgan. *(Farzandlari, nabirasi haqida film namoyish etiladi va o'quvchilar shoiraning ular haqidagi she'rlaridan parcha o'qiydi).*
1- o'quvchi:

«Kapalak»

Hulkar degan qizchaman.
Gul ichida o'saman.
Ko'kda uchsa kapalak,
Yo'llarini to'saman...
2- o'quvchi *(Hamid Olimjonning o'g'li Omonga bag'ishlagan she'rini o'qiydi)*:
Ukam bor edi Omon,
Jonlari jonimga jon.
Yurt bo'lsin omon-omon,
Yayraganimda...
3- o'quvchi *(Zulfiyaning nabirasi Ulug'bekka bag'ishlagan **«Nevara»** she'ridan parcha o'qiydi)*:
Nevaram quyunday otilib kirib,
Qalamim tagidan qog'ozni yular.
Damda varrak yasab, ko'kka uchirib,
Izidan qop-qora ko'zlari yurar...
(Shu vaqtda bir o'quvchi chiqib oldindan yasab qo'yilgan varrakni uchiradi. Barcha qarsak chaladi).
Boshlovchi: — Zulfiyaxonim tabiat, tong kuychisi. U hayotni tarannum etgan.
(Ekranda ona yurtimiz O'zbekiston, bahor fasli, tabiat go'zalliklari haqida lavhalar namoyish etiladi).

«Mening Vatanim»

1- o'quvchi: Men erkin Vatanda qushdayin ozod,
Emin-erkin o'sdim, undim, gulladim.
Shu hayotda cheksiz quvnoqman, ham shod,
Butun borlig'imni shunga yo'lladim.

2- o'quvchi: *(Bahoroy libosida chiqadi).*

«Bahor»

Havo ko'm-ko'k, unda yo'q g'ubor,
Quyosh nurin behad sochadi.
Yerda ajib to'lishib bahor,
Har kun yangi chehra ochadi.

«Yomg'ir»

3- o'quvchi:
Yomg'ir, sen tabiat saxiy farzandi,
Menga ko'rsat yo'l.
San'ating sevadi yer-u ko'k gardin,
Ezguliging mo'l.

4- o'quvchi: *(«Shalola» she'ridan parcha).*
Mehnat bergan oltin shodlikday,
Otilib toshadi shalola.
Shovqini ilhomdan yorliqday,
Yurakda ko'tarar tarona.

Boshlovchi: — Ona! Ona muqaddas va buyuk zot. U bir qo'li bilan beshikni, ikkinchi qo'li bilan dunyoni tebratadi. Ona qalbi — insoniyat qalbi. Uning hayajonli tuyg'ularida buyuk ishonch bor. Zulfiyaxonim ona, ham sadoqatli ayol siymosini madh etib, ko'plab she'rlar yozgan.

1- o'quvchi:

«Mening mehribon onaginam»

Onam, mening mushfiq, mehribon onam,
Qalbimda ovozing, o'zing qayerda!?
Quyosh og'ushiga solganmi olam,
Shu'laday odiming qaysi asrda?

2- o'quvchi:

«Bizning onalar»

Kim tanimas bizning onalarni?
Siz qayda sezmaysiz issiq nafasin?
O'lchab bo'larmikin ona mehrini,
Tugatib bo'larmi aytib qissasin?

Boshlovchi: — Shoira Zulfiya Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir kabi shoirlar bilan mushoiralar

o'tkazar edi. Ular she'rlarini tinglab, zavqqa to'lardi. Zulfiyaxonim haqida ular ham katta ehtirom bilan ta'rif bitganlar.

(O'quvchilar shoirlar rasmlari va nomlari yozilgan plakat bilan chiqadilar. Ular haqida film slaydda namoyish etiladi. Mayin kuy taraladi).

1- o'quvchi G'afur G'ulomning **«Zulfiyabegimga»** she'ridan parcha o'qiydi:

Umrlarcha davom etsin, Vatan ufqida parvozing,
Zamon aksi sadosidek, jaranglab tursin ovozing.
Asrlarning nidosi yangragan har parda satringkim,
Hayotiy shoshmaqomlardir yurak zarbiga teng sozing.

2- o'quvchi Erkin Vohidovning **«Vafo»** poemasidan parcha o'qiydi:

Meni barhayotsan,
Deding, shoiram.
Yorug' dunyodagi,
Hayotim o'zing...

3- o'quvchi Hamid G'ulomning **«Iltijo»** she'ridan parcha o'qiydi:

Shahar markazida ko'rkam bir uy bor,
To'rt tomon xiyobon, gullar doira.
Bu yerda yashashni etmish ixtiyor,
Ardoqli bir inson, buyuk shoira.

4- o'quvchi Gulchehra Jo'rayevaning **«Eng yaqin yulduz»** she'ridan parcha o'qiydi:

Eng yuksak, eng yorqin, eng yaqin yulduz,
Ko'kning zuhrosi-yu, she'r Zulfiyasi.
Ikkingiz egizak bir yolqinli so'z,
Mangulikning sevgan juft madhiyasi.

Boshlovchi: — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999- yil 10- iyunda «Zulfiya nomidagi davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi farmoni bir o'zbek ayoli uchun ko'rsatilgan katta ehtiromdir. Butun dunyoda yagona bo'lgan ushbu mukofot yurtimizdagi iste'dodli qizlarimizning adabiyot, san'at, fan, madaniyat va ta'lim sohasida erishgan muvaffaqiyatlari uchun berilmoqda. Zulfiyaxonim izdoshlari yurtimiz nomini ulug'lab kelmoqdalar. Biz ham mana shunday Zulfiyaxonim izdoshlarini davramizga taklif qilganmiz.

(Multimediada poytaxtimizda Zulfiyaxonim xotirasiga bag'ishlab o'rnatilgan haykal ko'rsatiladi).

Boshlovchi: — Ha, hayot har qancha qiyinchiliklarga duchor etsa ham, iroda, qat'iyat bilan kelajakka intilmoq va yorug' tuyg'ular bilan qalbni to'ldirmoq kerak. Shundagina inson o'z umrini ezgu ishlar bilan bezashi, shon-sharaf, e'zoz topishi mumkin.

Azizlar, Zulfiyaxonim she'rlari qalbimizda hamisha saqlanadi. Hayotni, go'zallikni, tiriklikni, istiqbolni ulug'lab yashashga da'vat etadi.

Barchangizga eng yaxshi tilaklar hamroh bo'lsin!

(Tadbir musiqa sadosi ostida yakunlanadi).

JANNAT — ONALAR OYOG'I OSTIDA

Maqsad: o'quvchilarning onalarga bo'lgan mehr-muhabbati, e'tiborini oshirish, ulug'lashga, qadriga yetishga o'rgatish.

Tadbirning borishi

1- boshlovchi: — Aziz ustozlar, mehribon ota-onalar, qadrli do'stlar! Bugungi «Jannat — onalar oyog'i ostida» deb nomlangan musiqali badiiy kechamizni ochiq deb e'lon qilamiz!

2- boshlovchi:

Assalom, mo'tabar, aziz onalar,
Assalom — olamning oliy kalomi!
Ta'zim aylagayman, sizga, ey, ustoz,
Bu mening samimiy ko'nglim salomi!

(Doira, nog'ora sadolari ostida beshik olib kiriladi. Ona rolidagi o'quvchi «bola»ni beshikka belab, alla aytadi).

Alla aytay, jonim bolam,
Quloq solgin, alla...
Shirin allam tinglab asta
Orom olgin, alla...
Kelajakning mevasisan,
Alla aytay, alla-yo...
Ko'zim nuri, dilbandimsan,
Suyanchig'im alla.
Allayo-alla, allayo-alla...

(Ona alla aytib, beshikka boshini suyaganicha uxlab qoladi. O'quvchilar onaga qarab Sobira Xalitovaning «Onajon» she'rini o'qishadi).

Quyosh olar nurni
Onalarning qalbidan.
Tog'lar olgan bardoshni
Onalarning sabridan.

Uyimiz nurga to'lar
Onajonim bor bo'lsa.
Ko'zlarim yosh ko'rmaydi
Onam baxtiyor bo'lsa.

Ona mehri beqiyos,
Daryolarga tenglashar.

Ona hurmati uchun
Osmon yerga engashar.
(«Onajon» qo'shig'i).
(Musiqa yangrab, Bahoroy kirib keladi).

Bahoroy: — Salom, mening sevimli o'g'il-qizlarim! Men — zumrad Bahorman. Meni sog'ingandirsiz-a? Gullar, ariqlarda oqar suvlarimni, qizlarning gullar bargidan qirq kokil taqishini, bir-biridan go'zal, sermazmun bayramlarimni-chi? Ayniqsa, 8- mart — Xalqaro xotin-qizlar bayramim juda ajoyib va go'zal! Men ham onaday mo'tabar inson oldida bosh egaman. Onalarimiz, ayollarimiz doim sog'-omon bo'lsinlar!

(Qizlar raqsi «Bahor valsi»).

1- o'quvchi: — Oilaning barcha ezguliklari, xizmatlari, yaxshi kunlari, muammolari ana shu ma'suma va munis ayol atrofida aylanaveradi.

2- o'quvchi: — Oqila va dono, fidoyi ayollarimiz hamisha

Hamma: — Omon bo'lsinlar!

3- o'quvchi: — Ayol oila o'chog'ini yoqadi, butun imkonini ishga solib, o'z bolasini bag'rida bo'ron va dovullardan sog'-salomat olib o'tadi, kelajakka poydevor qo'yadi.

4- o'quvchi: — Bunday bardosh va matonat uchun ularga

Hamma: — Ta'zim qilamiz!

5- o'quvchi: — Har qanday jamiyatning farovonligi va ma'naviy sog'lomligi mezoni, oila ahilligi, oila mustahkamligidir u.

6- o'quvchi: — Ayol oilaning asosi, xonadonlarimizni charog'on etuvchi chiroqdir. Har bir oilada bunday yog'du doimo...

Hamma: — Porlab tursin!

(«Mahallada duv-duv gap» musiqasi yangraydi. Sahnaga qariyalar kirib kelishadi. Sahna ko'rinishi).

1- o'quvchi: — Farzandlarning o'ng yuzi otasiga, chap yuzi ona ruxsoriga o'xshaydi. «Nega chap tarafi onasiga o'xshaydi?» — deb ajablanib so'rashganda g'oyibdan shunday nido kelganmish *(DVD yoki kompyuter orqali eshittiriladi):*

«Ey odamzod, o'ng qo'lingni chap ko'kraging ustiga qo'y. Bir lahza tin ol, diqqat et. Sezyapsanmi, kafting ostida butun bir zaminning yukini bo'yniga olib onangday mushfiq, onangday mehribon, u kabi zahmatkash yurak bir maromda urib turibdi. U mehnat qilyapti, volidayi muhtaramangday u hamisha uyg'oq. Shu bois farzandlarning chap yuzi — yurakka tutash tarafi ona ruxsoriga o'xshab ketgan bo'lsa ne ajab».

2- o'quvchi: — Onalik katta baxt. Afsuski, hayotda shunday onalar ham borki, o'z bolalari, jigar-go'shalarini tashlab ketishadi.

3- o'quvchi: — Yer yuzida qalbi pora minglab farzandlar mehribonlik uylarida tarbiyalanmoqda. Murg'ak norasidalarning aybi nima axir?

4- o'quvchi: — Ularga o'z mehrini beruvchi shirinso'z tarbiyachilar, bag'rikeng xalqimiz, ona-Vatanimiz bor.

5- o'quvchi: — Lekin hech bir zot ona mehrini berishga qodir emasdir.

(Sahna ko'rinishi).

1- o'quvchi: — Onalarning farzandda haqlari juda ko'pdir. Garchi uni boshingda ko'tarib, hajga olib borib kelsang ham, bir kechalik uyqusini buzib, senga bergan oq suti, aytgan allasining haqini uzolmaysan...

2- o'quvchi: — Onalarga biz farzandlaridan ko'p narsa kerak emas. Sog'-omon, tinch, baxtli-saodatli bo'lsak, shuning o'zi kifoya. Farzandi kamoli — ona iqboli.

3- o'quvchi: — Ona borki, hayot bardavom.

4- o'quvchi: — Ona borki, oila charog'on.

5- o'quvchi: — Ona borki, olam bor.

6- o'quvchi: — Onalarimiz bizni bir parcha etdan katta qilib, qatorga qo'shadilar, oq yuvib, oq taraydilar, doimo boshimiz uzra parvona ular.

7- o'quvchi: — Oyog'imizga kirgan tikanni kipriklari bilan olishga tayyordirlar.

8- o'quvchi: — Buning sababi nimada, ne uchun onalar farzand qoshida bu qadar parvona?

9- o'quvchi: — Kerak bo'lsa, farzandi uchun jonini fido qilishga ham tayyor ekanliklarining boisi nimada? Buning javobi bitta.

Hamma: — Bu — onalik mehridir.

— Sendan yuksak nima bor, yulduz?

— Onalar mehri.

— Sendan keskir nima bor, olmos?

— Onalar qahri.

— Qaydan olding otashni, quyosh?

— Ona qalbidan.

— Po'lat, qaydan senda zo'r bardosh?

— Ona sabridan.

— Senmi, ko'klam, hayotbaxsh fasl?

— Yo'q, Ona izi.

— Senmi, totli, shifobaxsh asal?

— Yo'q, Ona so'zi.
— Dengiz, nedir kenglikda tanho?
— Ona og'ushi.
— Sendan shaffof ne, tonggi ziyo?
— Ona nigohi.
— Baxsh beruvchi senmisan, hayot?
— Yo'q-yo'q, Onalar.

(«Kelinlar qo'zg'oloni» spektaklidan sahna ko'rinish).

Onalar bolalari bilan chiqib, she'r aytishadi. Bunda qobiliyatli o'quvchilar onalar rolini ijro etishadi.

1- ona:
O'g'lim toleingda ikkinchi onang,
Boshingda parvona mualliming bor.
U bilan yorug'dir qorong'u xonang,
U to'shar umringning yo'llariga zar.

2- ona:
Men senga shunchaki ko'zlar berganman,
Muallim o'rgatar ko'ra olmoqni.
Dilbandim, men senga ona bo'lganman,
Senga u o'rgatar ona demoqni.

3- ona:
Men senga tilingni berganligim rost,
Dono so'zlamoqni u o'rgatadi.
Men senga qo'llaring berganligim rost,
Qalam ushlamoqni u o'rgatadi.

4- ona:
Men senga sut berdim, u esa — ziyo,
Uningsiz yo'llaring bo'lmas oydin, oq.
Seni sevmog'imni biladi dunyo,
Ammo u sevadi mendan ortiqroq.

5- ona:
Go'daklik chog'ingda bo'lganman bedor,
Ham senga baxshida etganman hayot.
U esa yashashni o'rgatar ming bor,
Seni deb bezovta yashar umrbod.

1- o'quvchi: — Aziz, mo'tabar onajonlar, sevimli buvijonlarimiz, hurmatli mehribon o'qituvchilarimiz, munis opajonlar-u jajji singiljonlar! Sizlarni 8- mart — Xo in-qizlar kuni bilan chin yurakdan muborakbod etamiz!

2- o'quvchi: — Sizlarga uzoq umr, sihat-salomatlik tilaymiz!

3- o'quvchi: — Doim shunday go'zal va xushchaqchaq bo'lib yuring!

4- o'quvchi: — Labingizdan kulgu, chehrangizdan tabassum hech arimasin!

5- o'quvchi: — Biz, bolalaringiz baxtiga doim...
Hamma: — Sog'-omon bo'linglar!
Ona huzuriga shoshilib intiq,
Poylarin tavof etmoqlik kerak.
Onaday mehribon, onaday mushfiq,
Toki ko'ksimizda urarkan yurak.
Munis onalarning aksi-tal'ati,
Ko'rinar farzandning bo'yi-bastida.
Ona bu — dunyoning noyob xilqati,
Hamma: Jannat — onalarning oyog'i ostida.
(«Qiz bolaning ibolari chiroyli» raqsi).
O'qituvchi o'zining dil so'zlarini izhor etadi.
(Yakunlovchi ashula «Onalar mo'tabar»).

BIRNI KESSANG, O'NNI EK

Sahna bahor fasliga mos bezatilgan, gullar, qaldirg'ochlar, kurtak yozgan daraxtlar, qushlar rasmlari va «Assalom, Navro'z!», «Navro'zingiz muborak!», «Navro'z bayramingiz qutlug' bo'lsin!» degan shiorlar, o'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan varrak yasash musobaqasi g'oliblarining varraklari osilgan. Tadbirga buvi-buva, ota-ona, ustozlar taklif etiladi. Ushbu bayram tadbiri ekologik kecha sifatida ham o'tkazilishi mumkin. Karnay-surnay sadolari ostida jarchilar ikki tomondan chiqib, hammani bayram tantanasiga chorlaydi.

Jarchilar:

Eh-he-he-he!
Odamlar-u odamlar,
Bog'da [illegible]an bodomlar
Eshitmag[illegible]n demanglar,
Eshitganlar, jilmanglar,
Zaminga Navro'z keldi!
Eh-he-he-he...

Mayin, yoqimli bahor navosi ostida sahnaga «Bahoroy», «Qishbobo», «Dehqonbobo», «Boychechak», «Chuchmoma»lar navbati bilan teatrlashtirilgan sahna ko'rinishi asosida kirib keladi.

Bahoroy:

Adirlarga lola taqarman
Men bahorman, men bahorman.
Sevinch ila sizga boqarman
Men bahorman, men bahorman.

Boychechak:

Boychechak gul aslidir,
Navro'z faslin naslidir.
Boychechagim, boychechak,
Kutib olay xushchaqchaq.
Bola, bola, boychechak,
Etak to'la boychechak.
Boychechagim hilollik,
Hamyon-hamyon tillolik.
Gullardan biz teraylik.

Chuchmoma:
Ibo bilan bosh egib,
Turar yashnab chuchmoma.
Qir-adirlar bag'riga,
Chiroy tashlab chuchmoma.
Sening qadd-u husningni,
Ko'rib ko'zim tolmaydi.

Qishning musiqalari yangrab, Chuchmoma va Boychechak qaltiray boshlaydi.

Qishbobo: — Aziz momom yetti kun, qahrlansa, qattiq kun. Hoy To'qson, bir kunimcha yo'qsan. Qish faslining o'ziga yarasha injiqliklari bor. Qishning bir kuni ham qish.

Bahoroy: — Qishbobo, o'z o'rningizni menga bo'shatib bersangiz. Chechaklarim gul ochsa.

Qishbobo: — Yo'q, men hali o'z vazifamni tugatganim yo'q, hali ko'p joylarga qor yog'dirishim kerak. Chunki ko'plab mikroblar hali o'lmagan. Men viruslarni qiraman.

Mayin musiqalar ostida sahnaga Dehqonbobo chiqadi.

Dehqonbobo: — Qishbobo, biz sizdan xursandmiz! Siz bizga ko'p bayramlarni taqdim etdingiz. Bolajonlarning eng sevimli bayrami — Yangi yilni nishonladik, to'g'rimi, bolajonlar? *(Zalda o'tirgan bolalar baralla «Ha» deb jo'r bo'ladi).* Hamma-hammasi uchun rahmat! *(Bolalar rahmat deyishadi).* Men ham dam oldim. Ketmonlarim ham dam oldi *(hamma kuladi).* Biz yangi yilda rizq-ro'z topishimiz, mehnat qilishimiz, siz esa bizga yordam berib, xursand qilishingiz kerak.

Qishbobo: — Bolajonlar bahor, tabiat, daraxtlar, o'simliklar haqida qanday bilimga ega ekanliklarini ko'rsatishsa, sizlarga yordam beraman.

Dehqonbobo: — Albatta, ko'rsatishadi, to'g'rimi, bolalar? *(Bolalar «Ha!» deb javob berishadi).* Unda boshladik. *Bahor, Boychechak, Chuchmoma va Qishbobo tomoshabinlar safidan joy oladi. Davraga mayin, yoqimli o'zbek milliy kuyi ostida ikki nafar boshlovchi (bir qiz va bir o'g'il bola) milliy kiyimlarda chiqib keladi.*

1- boshlovchi: — Assalomu alaykum, aziz mehmonlar, kechamiz qatnashchilari!

2- boshlovchi: — Navro'z shodiyonalari yurtimiz bo'ylab kezmoqda. Biz ham bu tantana bilan barchangizni muborakbod etamiz!

1- boshlovchi:
Bu yashil olamga o'zing ber to'zim,
Shaftoli gulidek yorishar yuzim.

Oq bodom gulini o'pganing rostmi?
Kelganing chinmi, ayt, qadim Navro'zim?

2- boshlovchi:

Qizg'aldoq bargidek uchar dildan g'am,
Toshqinlar kiradi qalbimga manim.
Bahoring muborak bo'lsin ushbu dam,
Mening O'zbekiston — dilbar Vatanim!

1- boshlovchi: — Qishbobo shartini unutmadingizmi?

2- boshlovchi: — Yo'q. Keling, uni bajarish uchun bolalarga navbatni bersak. Ular dastlab «Topqirlar estafetasi»da bellashishadi.

***Topqirlar estafetasi**da 15 nafar o'quvchi qatnashadi. Ularga o'simliklar, daraxtlar, tabiat haqida topishmoqlar beriladi. Yarimoy shaklida joylashgan o'quvchilar qo'lida estafeta tayoqchasi bo'ladi. Har bir topishmoq javobi uchun 1 daqiqa vaqt ajratiladi. Kim topsa, estafeta tayoqchasi uning qo'liga o'tadi. Har bir o'quvchiga alohida topishmoq beriladi. Topishmoq javobini bilmagan o'quvchi o'yindan chiqariladi. O'yin yakunida estafeta tayoqchasi g'olib o'quvchida qoladi.*

1- boshlovchi: — Maktabimiz hovlisiga sinfimiz o'quvchilari bilan gullar, daraxt ko'chatlarini ekdik.

2- boshlovchi: — Ko'chat o'tqazishni kimdan o'rganding?

1- boshlovchi: — Buvam bilan har yili bahorda bog'imizga turli daraxt ko'chatlarini ekamiz. Hozir nihol qanday ekilishini ko'rishingiz mumkin. *(Bobo va nabira birgalikda bog'ga ko'chat o'tqazishayotgani ko'rsatiladi. Unda bahorda daraxtlar oqlanishi, hashar mohiyati haqida ham so'z boradi).*

2- boshlovchi: — Mening bobom ham «Birni kessang, o'nni ek», degan naqlni ko'p takrorlaydi. Buvim sumalak pishirishda «Nasibamiz butun, sumalagimiz totli bo'lsin», deb duo qiladi. Sumalak so'zining ma'nosi, u haqida rivoyatlar aytib beradi.

1- boshlovchi: — Yoshi ulug' bobo va momolarimiz bizga yaxshilik qilishni, tabiatni asrashni uqtirishadi. Qo'limizdan yetaklab turli to'garaklarga olib borishadi.

2- boshlovchi: — Nafaqat «Keksalarni e'zozlash yili»da, balki har doim biz ularni hurmat qilishimiz, ularga yaqin yordamchi bo'lishimiz kerak. Sinfdoshimiz Sardorning buvisi doira to'garagiga olib boradi. Hozir u buvisi va mehmonlarimizga ajoyib kuyni ijro etib beradi. Marhamat!

1- boshlovchi: — Bahor, tabiat haqida o'quvchilar ko'plab she'rlarni yod olishgan.

Ularga quloq tutaylik. *(O'quvchilar navbat bilan she'r aytishadi).*

2- boshlovchi: — Qani, yigitlarimizni sinab ko'raylikchi, kim shu gulni olib berar ekan?

O'yin: «Kim oladi-yo, shuginani-yo».

1- boshlovchi: — Sahnamizga Qishbobomizni chaqirsak. U kishi o'z va'dalarini bajararmikan?

Qishbobo: — Ha, albatta. Bolajonlar shartimni a'lo darajada bajarishdi. Endi meni muhlatim bitdi. O'z o'rnimni Bahoroyga bo'shataman. Xayr, bolajonlar, xayr!

(Sho'x musiqalar yangraydi va davraga boychechak kiyimida bolalar chiqib, «Boychechak» qo'shig'ini ijro etishadi).

1- boshlovchi: — Yurtimizga fasllar kelinchagi Bahor va uning dilbar bayrami Navro'zi olam kirib keldi.

2- boshlovchi: — Yangi yilimiz qut-baraka yili bo'lsin, dalalarda bobodehqonlarimiz ekkan nihollarning hosili mo'l bo'lsin!

9- aprel — Amir Temur tavallud topgan kun

SOHIBQIRON YODIMIZDA

Sahna milliy ruhda bezatiladi. O'rtaga bobomizning portreti qo'yiladi. Amir Temur haqida berilgan quyidagi fikrlar sahnada aks ettiriladi:

«Tengsiz azm-u shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi. Ilm-u fan, madaniyat, bunyodkorlik din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi».

(I.Karimov).

«Millatning dardlariga darmon bo'l...»

(Amir Temur).

1- boshlovchi Muhammad Yusufning «Vatan» she'ridan parcha o'qiydi:

Ey, menga ertaklar so'ylagan zamin,
Ergashib izingdan qolmasman sening.
O'zgalar nazdida Bog'i Eraming,
Jiydang yaprog'iga olmasman sening.
Vatan, qayda bo'lmay sen
hamrohimsan,
Bobolarim yotar sajdagohimsan.

2- boshlovchi:

Oltin beshik uzra allalar aytib,
Hamisha bedorim-onaizorim.
Jilg'asi jarangi tongda uyg'otib,
Yuragimga kirib kelgan bahorim.
Vatan, qayda bo'lmay sen hamrohimsan,
Bobolarim yotar sajdagohimsan.

1- boshlovchi: — Assalomu alaykum, aziz va mehribon ustozlar! Hurmatli ota-onalar va davramiz mehmonlari! Sohibqiron Amir Temur bobomiz tavalludiga bag'ishlab o'tkazilayotgan ma'naviy-ma'rifiy kechamizga xush kelibsiz!

2- boshlovchi: — Amir Temur — buyuk shaxs, kuragi yerga tegmagan sarkarda, yirik davlat arbobi, qonunshunos, mahoratli me'mor, notiq, ruhshunos, shu bilan birga, el-yurtini sevgan va uni mashhuri jahon qilgan inson.

1- o'quvchi: — Bobomiz Amir Temur 1336- yilning 9- aprelida qadim Kesh shahriga qarashli Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilgan.

2- o'quvchi: — Otasi Amir Tarag'ay o'ziga to'q, badavlat kishi edi. Temurning yoshligi va yigitlik davri mamlakat og'ir vaziyatda qolgan bir davrda kechdi.

3- o'quvchi: — Mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Chiston hokimining qudratli bir g'animi bo'lib, u bilan bo'ladigan kurashga hokim mard va dovyurak bobomiz Amir Temurni safarbar etadi. Bobomiz yigitlariga bosh bo'lib, jangga kiradi. O'shanda Amir Temur o'ng qo'l va o'ng oyog'idan og'ir jarohat oladi. Bu voqea 1364- yilda sodir bo'lgandi.

(O'quvchilar bayon etayotgan ma'lumotlar ta'sirli bo'lishi uchun ular tomonidan qisqa sahna ko'rinishlari namoyish etiladi. Masalan, 1- o'quvchi gapirayotganda ona timsolida kiyingan o'quvchi qiz yo'rgaklangan chaqaloqni ko'tarib o'tadi. Ikkinchi o'quvchi gapirayotganda esa boshqa o'quvchi Amir Temurning otasi — Amir Tarag'ay timsolida namoyon bo'ladi va hokazo).

4- o'quvchi: — Bobomizning tarix oldidagi xizmatlari beqiyos. U kishi mamlakatda kuchayib ketgan tarqoqlikka barham berib, el-u yurtni o'z tig'i ostida birlashtirdi. Markazlashgan yirik davlatga asos soldi.

5- o'quvchi: — Bu bilan ziroatchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniyat rivojiga mustahkam zamin yaratdi.

6- o'quvchi: — Bugun, «Temur va temuriylar davlati», «Temuriylar madaniyati», «Ulug'bek va Samarqand astronomiya maktabi», «Bobur», «Boburiylar saltanati» kabi qutlug' so'zlarni nafaqat o'zbekning, balki butun dunyo xalqlarining tarix sahifalarida uchratar ekanmiz, shuni unutmaslik kerakki, ular zamirida Amir Temurning ulkan xizmatlari bor.

7- o'quvchi: — Bobomiz Amir Temur qator xalq va yurtlarga mustamlakachilar zulmidan ozod bo'lishda yordam berdi. O'sha davrning eng qudratli podshosi Yildirim Boyazidni (1389–1402) tor-mor keltirib, Ovro'po xalqlarini tutqunlikdan xalos etdi.

8- o'quvchi: — Oltin O'rda xoni To'xtamishni (1376—1395) mavh etib, Rossiyaning mo'g'ullar hukmronligidan qutulishini qariyb 300 yilga tezlashtirdi.

9- o'quvchi: — Bobomiz Turkiston zaminini ziroatchilik, hunarmandchilik, ilm-fan va madaniyat rivojlangan ilg'or mamalakatga aylantirdi.

10- o'quvchi: — Amir Temur sa'y-harakati bilan obod etilgan shaharlar, kasabalar, qishloqlarni, Samarqand, Shahrisabz, Yassi (Turkiston) singari shaharlarda qad ko'targan imoratlarni aytmaysizmi?

Ular hozir yurtimiz ko'rkiga ko'rk qo'shib, ulug'vorlik va matonat ramzi bo'lib viqor to'kib turibdi.

(Tadbirning «Lirik chekinish» qismida Amir Temur haqidagi o'quvchilar yod olgan she'rlar o'qiladi).

1- boshlovchi: «Amir Temur» Muhammad Yusuf she'ri.

Samarqandda qoldi Bibixon,
Yo'llar qarab toldi Bibixon.
O'zbek seni o'zbek qilguncha,
Qirq yil otdan tushmadi sulton.

Maqtov-manzil malomatlarga,
Shohni riyo yetaklar jarga.
Qayrilmadi xushomadlarga,
Yolg'onlarga uchmadi sulton.

Garchi imo qilsa-qilmayin,
O'ttiz o'lka jilovda tayin.
Bir qultum ham manmanlik mayin,
Tatimadi, ichmadi sulton.

2- boshlovchi: «Dunyolarni quchdi o'zbek degan nom!» Muhammad Yusuf she'ri.

Bir to'kilib tag'in qomat tikladik,
Yelkalarga millat yukin yukladik.
Ozod vujudlarda ruh bo'ldi bino,
Binolar o'rnida davlat tikladik.
Qay kun tildan uchdi qadrdon
kalom —
Dunyolarni quchdi o'zbek
degan nom!
Boshni ne toshlarga urdi bu diyor,
Necha vayron bo'ldi, qurdi
bu diyor.

Tojmahal me'mori, Nilning mirobi,
Amir Temurlarning yurti bu diyor.
Bizni yo'qlaganga bizdan
ham salom,
Dunyolarni quchdi o'zbek
degan nom.

11- o'quvchi: — Bobomiz nayotlik davridayoq, uning harbiy san'ati va davlat boshqarish uslubiga bag'ishlangan «Temur tuzuklari» deb nomlangan asari shuhrat topdi.

12- o'quvchi: — Bobomiz o'z davlatining shon-shuhrati uchun poytaxt — Samarqand obodonligiga alohida ahamiyat bergan. Uning har bir zafarli voqeani, sevinchli hodisani muhtasham me'moriy obida barpo etish bilan nishonlash odati bo'lgan.

13- o'quvchi: — Shahrisabzda qad ko'targan mashhur Oqsaroy peshtoqlarida «Agar bizning qudratimizga shubha qilsang, biz qurdirgan imoratlarga boq!...» degan xitobnoma bitilgan.

14- o'quvchi:— Bobomiz Samarqand atrofida ko'pgina go'zal bog'lar barpo qildi. Bog'i Dilkusho, Bog'i Chinor, Bog'i Behisht, Bog'i Baland, Davlatobod, Bog'i Nav, Bog'i Shamol, Bog'i Jahonnamo, Bog'i Maydon kabi chorbog'lar va ulardagi go'zal ko'shklar o'sha davr bog'dorchilik san'atining yuksak namunalaridandir.

15- o'quvchi: — Bobomiz Amir Temur Xitoy va Hindistondan O'rta Osiyo orqali Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga boradigan xalqaro savdo yo'li — Buyuk Ipak yo'lida savdo karvonlari qatnovi xavfsizligini ta'minlash bo'yicha muhim chora-tadbirlar ko'rgan. Bu esa Amir Temur davlatining tashqi-iqtisodiy va elchilik aloqalari barqarorligiga olib keldi.

(Shundan so'ng Bo'riboy Ahmedovning «Amir Temur o'gitlari» kitobidagi «Darxon momo hikmati» va «Kamol Xo'jandiy hikmati» hikoyalari asosida o'quvchilar tomonidan tayyorlangan sahna ko'rinishlari namoyish etiladi).

Navbatdagi «Amir Temur hikmatlari» deb nomlangan bosqichda ishtirokchi o'quvchilar ikki guruhga, masalan, «Amir Temur izdoshlari» va «Temuriy nabiralar» guruhlariga bo'linib, Amir Temur hikmatlaridan aytishuv musobaqasi o'tkazishi mumkin.

Amir Temur hikmatlaridan namunalar:

1. Kuch — adolatda.

2. Oq bo'lsang, ont ichma.

3. Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab tadbirsiz loqayd kishilardan yaxshidur.

4. Shijoatli kishilarni do'st tut, chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi.

5. Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarni esa o'z yomonliklariga topshirdim. Kim menga do'stlik qilgan bo'lsa, do'stligi qadrini unutmadim va unga muruvvat, ehsor, izzat-u ikrom ko'rsatdim.

6. Yaxshini yomon kunda sina.

7. Aqlli dushman, johil-u nodon do'stdan afzalroq.

8. Agar dushmaning bosh urib panohingga kelsa, rahm qilib yaxshilik va muruvvat ko'rsat.

9. Bugungi ishni ertaga qoldirma.

10. Bir kunlik adolat ming kunlik toat-ibodatdan afzal.

16- o'quvchi: — Bobomiz Amir Temur saroyida 7 yil yashagan mashhur tarixchi Ibn Arabshohning surat va siyratlarini shunday tasvirlaydi: «Temur baland bo'yli, tik qomatli, keng peshonali, bag'oyat kuchli, oq-qizil yuzli, keng yelkali, qaddi-qomati kelishgan, sersoqol, qat'iy azm-u qaror bilan so'zlaydigan haqgo'y kishi edi.....».

17- o'quvchi: — Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov ana shu manbaga asoslanib, bobomiz portretlarini yaratishni taklif etdilar va bu ishni O'zbekiston xalq rassomi Malik Nabiyev zo'r mahorat bilan uddalay oldi.

18- o'quvchi: — Yurtboshimizning yana bir tashabbuslari bilan 1996- yil «Amir Temur yili» deya nomlanib, sohibqiron bobomiz shon-shavkatlariga, u kishi qoldirgan ma naviy-madaniy meros, uni asrab-avaylash, kelajak avlodlarga ham yetkazib berishga alohida e'tibor qaratildi va «Amir Temur» ordeni ta'sis etildi.

Bobomizning haykallari Samarqand, Toshkent, Shahrisabz shaharlarida savlat to'kib turganligi — u zotga bo'lgan cheksiz hurmat va ehtiromimiz belgisidir.

19- o'quvchi: — Amir Temurning uzuk — muhrlaridagi «Kuch — adolatda» deya bitilgan yozuv biz avlodlar qalbida ham mangu muhrlanajak va hayot yo'limizda dasturilamal bo'lib xizmat qilgusidir.

1- boshlovchi:

«Vatan yagonasan»

To jahon bor ekan, hamisha bor bo'l,
Temurning yurtisan, doim tojdor bo'l!
Poyingga baxshida jonimga yor bo'l,
Vatan, yagonasan dilimda doim.

2- boshlovchi: — Bizlar, darhaqiqat, dunyolarni o'z ilm-u salohiyati, ma'rifat va madaniyati, iymon-e'tiqodi, mehr-u muhabbati, yuksak ma'naviyati bilan hayratlantira olgan millat farzandlarimiz. Biz buyuk bobolarimiz bilan faxrlanamiz hamda ularga munosib vorislar bo'lish, ularning ibratli ishlarini davom ettirish, ona yurtimiz ravnaqi va nurli kelajagi uchun mas'ulmiz. Muhtaram Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek:

Hamma birgalikda: «Buyuk bobolarimizning ulug' niyatlari va ishlarini davom ettirishga burchlimiz!»

«XOTIRA — MUQADDAS, XOTIRA — ABAD!»

Prezidentimiz Islom Karimovning Farmoniga ko'ra, xalqimizning Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun jon fido etgan farzandlari xotirasini abadiylashtirish, bugun ham el-yurtimiz obro'yini yuksaltirishga, yoshlarni tarbiyalashga hissa qo'shayotgan faxriylarni ardoqlash maqsadida 9- mayni Xotira va qadrlash kuni sifatida keng nishonlash an'anasi qaror topdi.

Mazkur sana yurtimiz ta'lim muassasalarida ham o'ziga xos tarzda nishonlanadi. O'ylaymizki, quyida tavsiya etilayotgan bayram ssenariysi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga Xotira va qadrlash kunini munosib tashkil etishda yaqindan ko'mak beradi.

Tadbir o'tkaziladigan xona yoki sinf xotira kuniga mos tarzda bezatilgan, taassurotlarga boy bo'lishi kerak. Xonaga Ikkinchi jahon urushida halok bo'lganlar, qatag'on qurbonlari xotirasini, yoshi ulug' otaxon-u onaxonlarning keksalik g'ashtini surayotganligini ifodalovchi suratlari osilgan. Ular orasida Prezidentimizning yoshlar bilan tushgan katta hajmdagi surati ko'zga yaqqol tashlanib turadi.

O'qituvchi: — Assalomu alaykum, bugungi kechamizga yig'ilgan aziz o'quvchilar, davramiz fayziga fayz qo'shgan ustozlar! Xush kelibsiz! 9- may — Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan «Eng muqaddas kun» nomli bayram kechamizni ochiq deb e'lon qilamiz.

1- boshlovchi: — Xotira o'zlikni anglash, o'tmishni doimo yodda tutishga bot-bot da'vat etib turadigan muqaddas tuyg'udir. Inson o'zligini ana shu xotira va qadr tuyg'usi orqali chuqurroq anglaydi.

2- boshlovchi: — Biz millat, Vatan, istiqlol kabi so'zlarni hurmat bilan tilga olamiz. Ana shu tushunchalar haqida so'z yuritganda, fikrimizni beixtiyor xotira tuyg'usi band etadi. Inson xotirasi — muqaddas. Shuning uchun ham biz ajdodlarimizni esga olib, ezgu ishlarini yod etamiz. Agar xotira susaysa yoki yo'qolsa, ajdodlar bilan avlodlar o'rtasida uzilish yuz bersa, millat tanazzulga yuz tutishi mumkin.

1- boshlovchi: — Muqaddas sanalgan tushunchalar aslida xotira bilan tirik. U nafaqat o'tmishni unutmaslik, balki bugungi kunni va kelajakni yorqin tasavvur etish ham demakdir.

2- boshlovchi: — Xotira insonni kelajakka teran ko'z bilan qarashga o'rgatadi.

1- boshlovchi: — Qadrlash esa oilamiz ustuni bo'lgan, xonadonlarimizga fayz-u baraka bag'ishlab, ishlarimizga oq fotiha tilab turgan nuroniylarimizning hurmatini joyiga qo'yishdir. Qolaversa, insonlarning bir-birlarini qadrlab yurishlari zamirida ham ulug' hikmat yashirin.

1- o'quvchi:

Sen mening bobomsan, Xotira,
Sen mening momomsan, Qadr.
Bir uzun yo'llar-a... Xotira...
Bir uzun yo'llar-a... Qadr...

2- o'quvchi:

G'alvirak dunyoning tog'lari,
Po'panak bog'laydi raxtma-raxt.
Xotira — ko'nglimning dog'lari,
Qadr — ko'nglim suyangan daraxt.

3- o'quvchi:

Men-da bir novdangman, Qadr,
Sen mening bobomsan, Xotira.
Sen mening momomsan, Qadr,
Bir uzun yo'llar-a... Xotira...

Tabrik so'zi.

1- boshlovchi: — Ota-bobolarimiz oilasini, ahli-ayolini qanchalik avaylagan, ehtiyot qilgan bo'lsa, Ona Vatanni ham shunchalik ko'z qorachig'idek asragan.

2- boshlovchi: — «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», deya ta'kidlagan edi Yurtboshimiz. Biz xotira so'zining yonginasida qadr iborasini ham ishlatamiz. Nima uchun? Chunki Xotira va Qadr bir-birisiz yashay olmaydi. Istaymizki, ana shu ikki oliyjanob tuyg'u hech birimizdan yiroqlashmasin. Hamisha qalblarimizda aks-sado berib tursin.

Sahna ko'rinishi.

Hazin kuy yangraydi. Kuy pastlab, sahnaga barchamizning sevimli shoirimiz marhum Muhammad Yusuf timsolidagi o'quvchi chiqib keladi.

— Assalomu alaykum, aziz mehmonlar, hurmatli ustozlar, zukko o'quvchilar! Bugun bizlarni eslab, qadrlab, ruhimizni shod etmoqqa yig'ilgan ekansiz, shunday muazzam kunlarda barchangizga minnatdorchilik bildiraman. Siz — mustaqil yurt

farzandi, ozod Vatanning porloq kelajagisiz. Bizning armonlarimiz ro'yobga chiqishida sizlarning ham ulkan hissangiz bor. Bizni hech qachon unutmang.

G'amgin xotiramni qitiqlab bugun,
Yorqin hissiyotga bo'ldingiz sabab.
Ruhingiz bosh uzra uchar tun-u kun,
Har bir ezgu ishda siz menga madad.
Xotira — muqaddas, Xotira — abad!

Puchmoq bu tarixning qa'riga ketgan,
Ne bir allomalar, ne bir botirlar.
Ularning har biri muhrlab bitgan,
Xalqim yuragiga o'chmas xotirlar.
Xotira — muqaddas, Xotira — abad!

(Shoir Muhammad Yusufning «Qodiriy bobom» qo'shig'i ijro etiladi).

1- boshlovchi: — Poytaxtimizdagi Xotira maydoni nomli qutlug' maskanga har kuni yuzlab ziyoratchilar tashrif buyurishar ekan.

2- boshlovchi: — Xotira maydoniga qadam qo'ygan inson borki, bu yerdan taassurotlar-u hayratlarsiz ketmaydi. Kimdir Xotira kitobidan yaqin kishisining ismini ko'rib, ko'ziga yosh olsa, kimdir shu kunlarga yetib kelganiga shukrona aytadi. Tinchlikka da'vat etuvchi Motamsaro Ona haykali poyi gulchambarlar bilan to'lib ketadi. Bularning barchasi o'tganlar ruhiga ehtirom ifodasidir.

(Xotira maydoniga o'quvchilar tashrifi orqali kichik sahna ko'rinishi namoyish etiladi).

1- boshlovchi: — Maktabimiz o'quvchilari shu qutlug' maskanga ustozlari boshchiligida ziyoratga keldilar.

1- o'quvchi: — Ustozimiz bizni Xotira maydoniga olib bordilar. Ziyorat chog'ida bir otaxon bilan suhbatlashdik.

Nuroniy otaxon: — Bizning yoshligimiz jang-u jadallarda, urush olovi qa'rida o'tdi. Mana, to'qsondan oshdik. Shukur, dorilamon zamonlarda yashayapmiz. Istiqlol tufayli qadr topdik. Mana shu ziyoratgoh siz, aziz farzandlarimiz baxt-u saodati, osuda hayoti, Vatan ozodligi uchun kurashgan yurtdoshlarimiz sharafiga bunyod etilgan. Tinchlik — ulug' ne'mat, uning qadriga yetishimiz kerak. Biz, qariyalar sizlarning duoyi joningizni qilib yuramiz. Chunki sizlar Yurtboshimiz g'amxo'rligidan bahramand, mustaqil yurtning baxtiyor bolalarisiz.

2- o'quvchi: — Otaxonning gaplaridan keyin tinchlik, xotirjamlikning qadriga yanada ko'proq yetish kerakligini tushundik.

1- boshlovchi: — Janggohlarda jon fido etgan vatandoshlarimizdan qariyb 450 ming nafarining nomi Xotira kitobiga bitilgan. Prezidentimiz tashabbusi bilan yana 3 ming 725 nafar hamyurtimiz nomi aniqlanib, ushbu kitobga qayd etildi.

2- boshlovchi: — Xotira va qadrlash kunini o'tkazishdan maqsad, xalqimizning Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun jon fido etgan farzandlari xotirasini abadiylashtirish, bugungi kunda el-yurtimiz ravnaqida biz yoshlarni tarbiyalashga hissa qo'shayotgan faxriylarni ardoqlashdir.

1- boshlovchi: — Aytish joizki, bu nafaqat jang maydonlarida qurbon bo'lganlarni xotirlash, balki front ortida, urushdan keyingi yillarda fidokorona mehnat qilgan, bugungi dorilomon kunlarimizga hissa qo'shgan insonlarni xotirlash hamdir.

2- boshlovchi: — Muhtaram mehmonlar, aziz ustozlar, qadrli o'quvchilar! Shu bilan Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tadbirimizga yakun yasaymiz hamda Xotira va qadr tushunchalari hech biringizni tark etmasligini tilab qolamiz.

1- boshlovchi:

Yalpiz, rayhonlardan islarin izlab,
O'n to'rt kunlik oydek yuzlarin istab.
Bedor nasllarga, bedor ruh kabi,
Ularning umridan turarman so'zlab.
Ulug' ozodlikning shahidlariga,
Bag'rimdan tikladim marmar lavhalar.
Bugun istiqlolning shahidlariga,
Vatan sevgisidan so'ylasin ular.

2- boshlovchi:

Yana vatandoshlar ro'yxatlarida,
Tirik inson bo'lib yashaydi ular.
Insof-u adolat sarhadlarida,
Elni yorug' kunga boshlaydi ular.
Ular — qadr degan zanglamas oltin,
Xotira burjida so'nmas yulduzlar.
Har bahor gullaydi bog'lardan oldin,
Ular xazon bilmas yashil ildizlar.
(Mayin musiqa sadolari ostida kechaga yakun yasaladi).

XOTIRA AZIZ, QADR MUQADDAS

Tadbir o'tkaziladigan joy mustaqillik sharofati bilan qo'lga kiritilgan yutuqlarimiz tasvirlangan suratlar, ezgulikka chorlovchi shiorlar bilan bezatilgan. «Mahalla», «Nuroniy» jamg'armalaridan vakillar, faxriy ustozlar taklif qilingan.

Mayin kuy sadolari ostida sahnaga ikki boshlovchi chiqib keladi.

1- boshlovchi: — Assalomu alaykum, qadrli mehmonlar, munis onalar va aziz otalar, muhtaram ustozlar, tengdoshlar!

2- boshlovchi: — Tilimda, dilimda eng ezgu kalom

Azizlar, sizlarga salom, assalom!

1- boshlovchi: — Hurmatli mehmonlar, bugungi «Xotira — aziz, qadr — muqaddas» nomli tadbirimizni ochiq deb e'lon qilamiz.

2- boshlovchi: — Istiqlol tufayli ko'p an'ana va urf-odatlarimiz tiklandi, o'tmishda millat ozodligi, xalq farovonligi yo'lida jonbozlik ko'rsatgan ajdodlarimiz nomi abadiyatga muhrlandi.

Shamol tegib ko'krakka,
O'zimizni tanidik.
Malham bo'lgan yurakka
So'zimizni tanidik.

1- boshlovchi: — 1999- yil 3- martdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan 9- may «Xotira va qadrlash kuni» umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi.

— Xalq orasidagi «Qarisi bor uyning parisi bor», «Qarisi bor uyda baraka bo'ladi», degan ibratomuz gaplar ham o'tmishi buyuk ajdodlarning boy ma'naviy merosi bilan g'ururlanishi mumkin bo'lgan millat ekanligimizdan dalolat beradi.

— O'tganlar ruhini yod olish, tiriklarga mehr-oqibat ko'rsatish kabi qadriyatlar har bir insonning burchi va vazifasi sanaladi.

2- boshlovchi: — Xotira va qadrlash kunidek ulug' kun haqida so'z borar ekan, avvalo, xotira nima ekanligini tushunib olishimiz kerak. Bunda Yurtboshimizning so'zlari ciqqatga sazovor: «Xotira bu — foniy dunyodan o'tgan ajdodlarimizni eslash, ularning chirog'ini yoqib, ezgu ishlarini davom ettirish»dir.

1- boshlovchi: — Ha, xotira bugungi tinch va baxtiyor kunlarimiz uchun jonini fido qilgan bobolarimiz nomini yodga

olish, qadr esa yonimizdagi mo'ysafid otaxon-u onaxonlarimizni e'zozlab, qadriga yetish, desak mubolag'a bo'lmaydi.

(Musiqa yangraydi, sahnaga bobo va nabira chiqib keladi).

— Bobojon, qayerga ketyapsiz, axir bugun dam olish kuniku?

— Bolam, sen bilan bir joyga borishimiz kerak. Ko'nglimni yozib, olis xotiralarimni yodga olmoqchiman. Borasanmi, bolajonim?

— Boraman, bobojon, boraman. Faqat qayergaligini ayting.

— Xotira maydoniga, o'g'lim.

— Mayli bobojon, yuring.

Ular «Motamsaro ona» haykali qoshiga kelishadi.

— Bobojon, bu kimning haykali?

— Bu — farzandini urushga jo'natgan va kelishini intizorlik bilan kutayotgan ona haykali, o'g'lim. Mazkur yodgorlik yurt tinchligi uchun jonini fido qilgan mard o'g'lonlar va ularni kutib yashagan mushtipar onalar xotirasini abadiyatga muhrlash maqsadida o'rnatilgan.

— Bobojon, odamlar «Motamsaro ona» haykali poyiga gulchambarlar qo'yishyapti, men ham qo'ysam maylimi?

— Mayli, bolam, mayli.

Qo'llarida gul ko'targan bolalar chiqib, yodgorlik atrofida tizilishadi:

1- o'quvchi:

Jim do'stim, bir lahza sukut saqlaylik,
Baxtimiz qurboni bo'lganlar haqqi,
Nomlarin yod etib, bir-bir yo'qlaylik,
Xalqim deb, yurtim deb o'tganlar haqqi.

2- o'quvchi:

Ular yosh edilar, hayotga tashna,
To'yib ham totmagan sevgi otashin,
Umid g'unchalari barg yozmay yashnab,
Abadiy qo'yganlar tuproqqa boshin.

3- o'quvchi:

Ota edi ular oilaga bosh,
Faxrlanib eslar o'g'il-qizlari,
Nogahon ko'zlardan sizib chiqar yosh,
Urush solgan dardning bitmas izlari.

4- o'quvchi:

Fidolar qabrida kezaman beun,
Ma'yus bir kuy chalar qalbim torlari.
Alvon chechaklarga burkanib bu kun,
Bunda yotar baxtim ijodkorlari.

5- o'quvchi: — Xotira va qadrlash kunida xalqimiz avvalo, istiqlolimiz, Vatanimiz sharafi uchun jon bergan insonlarni yodga oladi.

— 9- may — «Xotira va qadrlash kuni» munosabati bilan o'tkaziladigan xayriya tadbirlarida xalqimizga xos ezgu fazilatlar yorqin namoyon bo'ladi.

— Oltin meros tarixini qadrlaydigan bizdek yoshlari bor yurtning kelajagi ham o'tmishi kabi buyuk bo'ladi.

6- o'quvchi: — Poytaxtimiz markazida 1999- yil 9- may kuni «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuyi ochildi. Majmuada mangu alanga yodgorligi va jigarbandini urushga o'natib, qaytishini intizor kutayotgan «Motamsaro ona» haykali o'rnatilgan. Xiyobon ayvonidagi kitobga II jahon urushida halok bo'lgan 450 mingga yaqin yurtdoshimiz nomi zarha harflar bilan bitilgan.

1- o'quvchi: — Xotira maydonlari mamlakatimizning boshqa viloyatlarida ham barpo etilgan.

2- o'quvchi:

Bunda necha avlodlarning og'inchlari bor,
Bunda nomlar jimirlatar jon birla tanni.
Ustunlar ham xotiraning o'ziday poydor,
Ko'tarib turganday ulug' vatanni.

(Sirojiddin Sayyidning «Xotira maydoni ustunlariga» she'ri).

3- o'quvchi: — Qatag'on yillarida qatl etilgan ma'rifatparvar bobolar Bo'zsuv kanali sohilidagi «Alvastiko'prik» deb nom olgan jarlikka nom-nishonsiz ko'mib tashlangan edi. Ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish maqsadida 2000- yili bu joy obod bir go'shaga aylantirilib, «Shahidlar xotirasi xiyoboni» deya nomlandi. Keyinchalik shu nomda muzey va jamg'arma tashkil qilindi.

4- o'quvchi: — O'tmishga bir nazar solaylik, mustaqillikka erishgunga qadar, ajdodlarimiz ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechirganiga guvoh bo'lamiz. Ularning ruhi, shijoati qalbimizni aslo tark etmaydi.

(Jumaniyoz Jabborovning «Shahidlar yodi», Muhammad Yusufning «Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor» she'rlari o'qilgach, «Ajdodlar ruhi» qo'shig'i sadolari ostida improvizatsiya asosidagi sahna ko'rinishi namoyish etiladi).

5- o'quvchi: — Xonadonimiz to'rida savlat to'kib o'tirgan uyimiz farishtalari — bobo-buvilarimiz ham urush yillari boshlaridan juda og'ir kunlar o'tgani va bugungi tinchlikni qadrlash zarurligini tez-tez takrorlab turishadi. Vatan istiqboli uchun kurashadigan, fidoyi va jasur farzand bo'lib voyaga yetishimizni so'rab, duo qilishadi.

6- o'quvchi: — Buvim menga doim uqtiradi: beparvoliik, loqaydlik va sotqinlikning oqibati yomon bo'lar ekan.

7- o'quvchi: — Keksalarimiz niyati, ota-onamiz tilagi, el-yurt istagi — TINCHLIK! «Tinch elning bog'i gullar», deydi xalqimiz. Har bir inson Vatanining, eng avvalo, tinch bo'lishini xohlaydi. Shukrki, kunlarimiz tinch, osoyishta o'tmoqda. Har bir tongni shukronalik bilan qarshi olamiz. Vatanimiz gullab-yashnamoqda. Bizni butun dunyo tan olmoqda va bularning hammasi sabr-qanoatli xalqimiz mehnati, davlatimizda yuritilayotgan odilona siyosat mevasidir.

Dunyoda bitsin urush,
Yer yuzi ko'rmasin dog'!
Gullasin shirin turmush,
Tinchlik bo'lsin hammayoq.

Yer katta, bizlar kichik,
Ammo bizlar ko'pchilik.
Istagimiz yagona —
Barqaror bo'lsin tinchlik.

Ba'zi urushqoqlarni,
Insofga chaqiraylik.
Baralla ovoz bilan,
Biz shunday hayqiraylik:

— Gullarga quyosh kerak,
Tinchlik kerak bizlarga,
Tinchlik kerak dunyodagi
Barcha o'g'il-qizlarga!
(Hamza Imomberdiyevning «Tinchlik bo'lsin» qo'shig'i).

O'qituvchi: — Azizlar! Tinchligimiz, musaffo osmonimiz, mustaqilligimizning qadriga yetaylik!

1- boshlovchi: — Hurmatli mehmonlar, bugungi «Xotira — aziz, qadr — muqaddas», deb nomlangan tadbirimiz nihoyasiga yetdi. Barchangizga sog'lik, uzoq umr tilaymiz.

2- boshlovchi:
O'tmishdan bizlarga eshitilar sas,
Bir zum bu ovozga quloq tutsang bas.
Zamin aylansa-da, yillar o'tsa-da,
Birgalikda: Xotira azizdir, qadr — muqaddas!

ONA VATAN — AZIZ!

1- boshlovchi: — Assalomu alaykum, qadrli mehmonlar, aziz ota-onalar, muhtaram ustozlar va o'quvchilar!

Bugungi 9- may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan o'tkazilayotgan «Ona Vatan aziz!» nomli bayram tadbirimizga xush kelibsiz!

(O'quvchilar ijrosida tinchlik haqida qo'shiq kuylanadi).

— Osmoni tinch O'zbekistonning,
Bog'larida qushlar sayraydi.
Gul, chechakka burkangan yurtim,
Jamolidan dillar yayraydi.
Doim omon bo'lgin, Vatanim,
Jannatmisol ko'rkam chamanim!

Tinchlik so'zi niyatlarga esh,
Momolarim duosin boshi.
Bo'lsin to'kis baxtli deb bilar,
Shu zaminning keksa-yu yoshi.
Doim omon bo'lgin, Vatanim,
Jannatmisol ko'rkam chamanim!

Janggohlardan qaytib kelmagan,
Bobolarim ruhi shod bo'lsin!
Farzandini umid-la kutgan,
Momolarim ruhi shod bo'lsin.
Ular qurgan tinch hayot kulsin,
Yurtim bog'larida chechaklar unsin.

(Tadbir ishtirokchilari sahnaga chiqishadi. Ular Xotira va qadrlash kunining mohiyati haqida so'zlaydilar).

1- o'quvchi: — Tinchlik — muborak so'z, muqaddas kalom. Keksalarimiz duosida, ezgu niyatlarida ushbu so'zni takror va takror eshitamiz.

2- o'quvchi: — Ne baxtki, muqaddas zaminimiz — mustaqil O'zbekistonimizda osoyishta hayot hukmron. Osuda turmush biz, baxtiyor avlodlarga nasib etgan.

3- o'quvchi: — Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, azaliy qadriyatlarimiz tantana qilib, yurtimizda ko'plab bayramlar nishonlana boshlandi. Barcha bayramlarimiz o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra xalqimizning azaliy an'ana, urf-odatlarini, orzu-

umidlarini namoyon etadi. Shu jumladan, o'tganlar yodga olinayotgan, nuroniy bobo, momolarimiz qadrlanayotgan bugungi kun ham.

4- o'quvchi: — Ta'kidlash joizki, 1999- yildan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga asosan, 9- may — Xotira va qadrlash kuni umumxalq bayrami sifatida nishonlanib kelinmoqda.

(O'quvchilar istiqlol sharofati bilan amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari haqida so'zlashadi).

— Barchamizga ma'lumki, 1999- yil 9- may kuni poytaxtimizda ikkinchi jahon urushi yillarida mardlarcha halok bo'lgan o'zbekistonlik jangchilarning xotirasini abadiylashtirish maqsadida barpo etilgan «Xotira maydoni» majmuasi ochildi.

— Urushdan qaytmagan 450 mingga yaqin yurtdoshimiz nomi zarhal harflar bilan «Xotira kitobi»ga bitildi. Xotira maydonidagi «Motamsaro ona» haykali qoshiga har kuni ko'plab ziyoratchilar tashrif buyurishadi. Jigarbandini jang maydoniga jo'natib, butun umr intizor kutgan munis ayolning g'amgin qiyofasida biz urush dahshati, tinchlik qadrini his etamiz.

(Bolalar Sirojiddin Sayyidning «Xotira maydoni ustunlariga» she'rini o'qishadi).

Bunda necha avlodlarning sog'inchlari bor,
Bunda nomlar jimirlatar jon birla tanni.
Ustunlar ham Xotiraning o'ziday poydor,
Ko'tarib turganday ulug' Vatanni.

— 9- may kuni erta tongdan yurtimizning barcha viloyatlaridagi Xotira maydonlarida urushda xizmat qilgan mard o'g'lonlarimiz yodga olinadi.

— 1941—1945- yillarda bo'lib o'tgan Ikkinchi jahon urushiga ketgan ko'plab yurtdoshlarimizga ona-Vataniga qaytib kelish nasib etmadi.

— Minglab yigitlar qonli janglarda Vatan ozodligi yo'lida mardlarcha halok bo'ldi.

— Lekin ularning mardligi, Vataniga bo'lgan sadoqati sabab, mana shunday osuda hayotda yashash baxtiga egamiz.

(Muhammad Yusufning «Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor» she'rini aytadilar).

Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor,
Toshlarni yig'latgan dostonlaring bor.
O'tmishingni o'ylab og'riydi jonim,
Ko'ksing to'la shahid o'g'lonlaring bor.

Yurtim, ko'nglingdek keng osmonlaring bor,
Yulduzni yig'latgan dostonlaring bor.

Osmonlaringda ham diydoringga zor,
Jayrondek termulgan Cho'lponlaring bor.

Qo'ling qadog'iga bosay yuzimni,
Onamsan-ku, og'ir olma so'zimni.
Qayinbarglar yopib qaro ko'zini,
Olislarda qolgan Usmonlaring bor.

Qurboning bo'layin, ey, onajonim,
Sening faryodlaring — mening fig'onim,
O'tmishingni o'ylab o'rtanar jonim,
Aytsam ado bo'lmas dostonlaring bor.
(Sahnaga yana boshlovchilar chiqishadi).

1- boshlovchi: — Muhtaram Yurtboshimiz bu kunning naqadar ulug' ekaniga alohida urg'u berib shunday degan edilar:

«Xotira deganda biz bu foniy dunyodan o'tgan ajdodlarimizni eslash, ularning chirog'ini yoqib, ezgu ishlarini davom ettirishni tushunamiz. Bu xalqimizga xos azaliy fazilatdir».

2- boshlovchi: — «Qadrlash degani — bu asrlar davomida ona diyorimizni, xalqimizning ozodligi va istiqlolini, erkin va farovon hayotini mardlik va shijoat bilan himoya qilgan fidoyi vatandoshlarimizni yodga olmoq, ularga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatmoqdir».

1- boshlovchi: — Haqiqatdan ham, yurtimizda inson xotirasi, qadr-qimmati aziz hisoblanadi.

2- boshlovchi: — Biz ulug' ajdodlarimizni, ota-bobolarimizni, fidoyi yurtdoshlarimizni doimo hurmat bilan tilga olamiz.

(O'quvchilar Abdulla Mavloniyning «Urush faxriylariga» she'rini o'qishadi).

Qariya, mo'ysafid, faxriy kim o'zi,
Sizning duoingiz ijobat bo'lsin.
Insonni qadrlash maqsadning ko'zi,
Sizni ardoqlagan sevinchga to'lsin.

Hayotiy falsafa har faxriy so'zi,
Kelajak avlodlar o'ynasin, kulsin.
O'zlari yurtga ko'rk bo'lgan faxriylar,
Bizni duo qiling, aziz faxriylar.

(Kichik sahna ko'rinishi namoyish etiladi. Bobo va buvi nabirasi bilan suhbatlashmoqda).

Bobo: — Obbo, qizalog'imey, bizlarni ko'rgani kelibsan-da. Yaxshi yuribsanmi? Ukalaring, oying, dadang sog'-salomat yurishibdimi?

Nabira: — Ha, bobojon, bizlar yaxshimiz. Ukalarim ham, oyim, dadamlar ham sog'-salomat yurishibdi. Hali zamon ular ham sizlarni ko'rgani kelib qolishadi.

Buvi *(nabirasini bag'riga bosib)*: — Qizim, nega bir o'zing kelding? Ishqilib uydagilar bilishadimi?

Nabira: — Ha, buvijon, bilishadi. Bugun o'qituvchimiz bizni «Xotira xiyoboni»ga olib bordi. Ziyorat paytida nuroniy bobolarimiz, momolarimiz suhbatini tingladik. Shundan so'ng, sizlarni ko'rgani to'g'ri bu yoqqa kelaverdim. Bobojon, siz ham urushda bo'lganmisiz?

Bobo: — Yo'q, bolam, biz unda yosh edik. Ammo onalarimiz bilan birga front ortida mehnat qildik.

Buvi: — Ha, jonim qizim, urush yillari juda og'ir damlarni boshimizdan kechirganmiz. Lekin g'alabaga ishonch, Vatanga sadoqat tuyg'usi hamma narsadan ustun bo'lgan. Barchamiz mana shunday dorilomon kunlarning qadriga yetishimiz kerak.

Nabira: — Dadamlar ham bu to'g'rida ko'p gapiradilar. Bobojon, bayram munosabati bilan tinchlik haqida she'r yodladim, aytib bersam maylimi?

Bobo: — Aytaqol, qizim.

Nabira:

Tinchlik qo'shig'ini kuylaymiz,
Biz — baxtiyor el farzandlari,
Kelajakning tayanchi bo'lgan
Jannatmakon yurt dilbandlari.
Tinch hayot nafasi ufurgan,

Vatanimiz bog'lari go'zal.
Osmoni musaffo, behavo, ko'rkam,
Qushlar navosi-la tonglari go'zal.
Bobolardan merosdir bizga
Muqaddas yurt, osuda hayot!
Asragaymiz qalb qo'rimiz-la,
Ajdodlar o'giti bizlarga qanot.

Bobo: — Ko'p yasha, ona qizim. She'ringda aytilganidek, O'zbekistonimizdagi tinch, osoyishta hayotga hech qachon ko'z tegmasin!

(She'r tugagach, tadbir ishtirokchilari sahnaga chiqishadi. Musiqa yangrab, Vatan haqida qo'shiq kuylanadi).

Musiqa sadolari ostida kechaga yakun yasaladi.

MATEMATIKA — FANLAR SHOHI

Tadbir o'tkazilayotgan joy bayramona ruhda bezatiladi. Devorda al-Xorazmiy surati aks ettirilib, uning atrofida matematika faniga doir fikrlar yoziladi. Tadbir quvnoq musiqa sadolari bilan boshlanadi. Sahnaga milliy kiyingan ikki nafar o'quvchi chiqib keladi.

1- boshlovchi:

— Assalom, yurtimizning bilimga boy maskani!
Assalom, ey ilm-u fanning sohib-u davronlari!
Davramizga xush kelibsiz, elning sharaf-shonlari,
Siz kelajak bunyodkori, topqir-u zukkolari!

2- boshlovchi:

— Matematik tadbirda bo'ling deymiz siz shodon,
Jilo bersin davraga turfa xil she'r betakror.
Qiziq topshiriq, misol sizga bo'lsin armug'on,
Bobomiz al-Xorazmiy ruhi bo'lsin madadkor!

1- boshlovchi: — Assalomu alaykum, qadrli ustozlar bilimga chanqoq o'quvchilar!

2- boshlovchi: — Bugungi bayram tadbirimizni hisob-kitob ilmi — matematika faniga bag'ishladik.

1- boshlovchi: — Tadbirimiz rang-barang she'r va quvnoq topshiriqlarga boy.

2- boshlovchi: — Qani, aziz tengdoshlar! Matematika fani bizga nimalarni o'rgatar ekan?

(Shu payt sahnaga 4- sinf o'quvchilari chiqib, matematika fani haqida she'r o'qishadi).

1- o'quvchi: — Matematika atamasi yunonchadan olingan bo'lib bilim, fan ma'nosini beradi. U aniq mantiqiy mushohada, hisoblash amallari bilan shug'ullanadigan fandir.

2- o'quvchi:

Hisob-kitob ilmini,
O'rgat, matematika.
«Qo'sh, ayir, bo'l, ko'paytir»,
Oddiy arifmetika.

3- o'quvchi:

Raqamni bir-bir sanab,
O'rgan amal tartibin.
Qiziqarli ifoda
Va tenglamalar tuzgin.

4- o'quvchi:
Ko'paytirish jadvalin
Ikkilanmasdan yodla,
O'lchov birliklarini
Yoddan aytgin baralla.
5- o'quvchi:
Chizgin chiziq va kesma,
Perimetr, yuza top.
Gorizontal, vertikal,
Bunda barcha so'z noyob.
6- o'quvchi:
Birlar, o'nlar va yuzlar,
Ko'p xonali sonlar bil.
Sodda, qiyin masala,
Yechishga to'pla aql.
7- o'quvchi:
Hisob-kitobni bilsang,
Barcha yo'l senga ochiq.
Hayotda qoqilmaysan
G'oliblik senga tortiq!

1- boshlovchi: — Matematika faniga kim asos solganini bilasizmi?

2- boshlovchi: — Ha, albatta, matematika faniga buyuk bobomiz, qomusiy olim Muso al-Xorazmiy asos solgan.

1- boshlovchi: — Al-Xorazmiy 783- yilda Xorazmda tug'ilgan, jahonga tatigulik olamshumul asarlar yaratib, butun umrini ilm-u fanga bag'ishlab, 850- yilda vafot etgan.

2- boshlovchi: — Bir necha asrlardan buyon saqlanayotgan ma'lumotlarga ko'ra, bobomiz bolalikdan o'tkir zehnli bo'lgan ekan. Yoshligidan O'rta Osiyoning ko'pgina shaharlarida bo'lib, ularning tarixi, geografiyasini yaxshi o'rgangan.

1- boshlovchi: — Bag'dodga kelib, bu yerda tashkil etilgan «Bayt-ul-hikmat» nomli ilm o'chog'ida olimlar bilan ko'plab ilmiy kashfiyotlar qilib, buyuk olim bo'lib yetishgan.

2- boshlovchi: — Demak, biz ana shunday buyuk daholarga munosib avlod bo'lishimiz lozim.

(Shu payt sahnaga al-Xorazmiy qiyofasiga monand o'quvchi tashrif buyuradi).

1- boshlovchi: — Assalomu alaykum, bobojon.

2- boshlovchi: — Davramizga xush kelibsiz, donishmand bobo!

Al-Xorazmiy: — Assalomu alaykum, bilimga chanqoq bolajonlar. Siz bilan uchrashib turganimdan baxt'oyat xursandman. Ishonamanki, siz kelajakning buyuk olim-u davronlarisiz. Bilasizmi, bolajonlar matematika fanining asosiy jihatlari nimada?

1- boshlovchi: — Buyuk bobokalon, keling bu savolga tengdoshlarimizdan javob eshitamiz.

(Sahnaga +, -, :, • amallari tasvirini ko'tarib, bir qancha o'quvchilar chiqadi).

1- o'quvchi:
Arifmetik to'rt amal,
Qo'shish hamda ayirish,
Mulohazaga chorlar
Bo'lish va ko'paytirish.

2- o'quvchi:
Uchga to'rtni qo'shamiz
Javobi bo'lar yetti.
Shunday oson topilar
Qo'shishda har yig'indi.

3- o'quvchi:
Kamayuvchi, ayriluvchi,
Hosil bo'lar ayirma,
Yuzdan saksonni ayir
Javob bo'lar yigirma.

4- o'quvchi:
Karra jadvalni bilsang,
Ko'paytirish oson ish,
Yodda tutgin, hayotda
Hisob kerak yoz-u qish.

5- o'quvchi:
Bo'linuvchi, bo'luvchi,
Qani, bo'linma toping.
O'nni o'nga bo'lganda
Bir bo'lar, shuni biling.

1- boshlovchi: — Buyuk bobokalon, bilamizki, matematika fanida tezkorlik muhim.

Al-Xorazmiy: — Albatta, tezkorlik va topqirlik bu — bilimlar cho'qqisi sari olib boruvchi yo'l. Men topqir bolajonlar uchun bir qancha topshiriqlar tayyorlab kelganman.

2- boshlovchi: — Keling, bobojon, unda davradagi tengdoshlarimizning zehni va tezkorligini sinab ko'ramiz.

(Shundan so'ng sahnaga ixtiyoriy ravishda to'rt-besh o'quvchi chiqadi. Ishtirokchilarga quyidagi tezkor savollar bilan murojaat qilish mumkin).

1. 30 sonidan 6 marta kichik sonni ayting.
2. Qaysi son 90 sonidan 9 marta kichik?
3. 20 va 10 sonlarining ko'paytmasini 10 marta kamaytiring.
4. 100 va 10 sonlarining bo'linmasini 10 marta orttiring.
5. 70 va 30 sonlari yig'indisidan 30ni ayiring.
6. 80 va 20 sonlarining ayirmasiga 20ni qo'shing.
7. Habiba 10ta kitob, Muslima undan 10ta ko'p kitob sotib oldi. Ikkala dugona nechta kitob sotib oldi?
8. Asadbek 8ta inga don sepib chiqdi. Har bir inda 8tadan qush bor edi. Asadbek nechta qushga don berdi?
9. Mushtariy 18ta derazani tozaladi. Har bir uyda 2tadan deraza bor. Mushtariy nechta uyning derazasini tozalagan?
10. Firdavsda 100ta, Asadbekning undan 2 barobar ko'p «5» bahosi bor. Ikkala aka-ukaning «5» baholari nechta?

1- boshlovchi: — Bilasizmi, matematika fani bizga mantiqan fikrlashni o'rgatadi, shu bilan birga, tafakkurimizni boyitadi.

2- boshlovchi: — Keling, davradagi tengdoshlarimizga mantiqan fikrlashga undaydigan topshiriqlar bilan murojaat qilamiz.

1. Umidjon quyonchalarning inida 12 juft quloqchalarni sanadi. Umidjonning quyonchalari nechta?
2. 10ta uyning lampochkasi yonib turgan edi. 2 juft uyning lampochkasi o'chib qoldi. Nechta uyda lampochka yoqilgan turibdi?
3. Rassom 20 nafar o'g'il bolaning rasmini chizish uchun nechta ko'z, quloq, qo'l va oyoq chizishi kerak? Hammasi qancha bo'ldi?
4. Marjona hozir 5 yoshda, 4 fasl o'tgandan so'ng u necha yoshga to'ladi?
5. Sevara 12 yoshga to'lgach, yana necha oydan so'ng 15 yoshga to'lishini hisoblab topdi. Sevara necha oydan so'ng 15 yoshga to'ladi?
6. Fotima 12 oydan so'ng 10 yoshga to'ladi, Zuhra ham 12 oydan so'ng 10 yoshga to'ladi. Opa-singillarning ikkalasi necha oydan so'ng 10 yoshga to'ladi?
7. Madinaga oyisi 3 metr atlasdan chiroyli ko'ylak tikib berdi. Oyisi 3 metr shoyidan Madinaga nechta ko'ylak tikib bera oladi?
8. Dilshoda roppa-rosa 56 kundan so'ng imtihon topshiradi. Imtihonga necha hafta qoldi?
9. Said bug'doyni 3 soatda, arpani 120 minutda o'rib bo'ldi. Said hammasini necha soatda o'rib bo'ldi?

10. Eshik oldida 24ta oyoq kiyim bor. Uyda nechta mehmon borligini aniqlang.

1- boshlovchi: — Hayotimizda uchraydigan har bir predmet, har bir narsa biz matematika fanida tanishgan geometrik shakllardan tashkil topgan.

2- boshlovchi: — Keling, unda navbatni geometrik shakllarga beraylik. Ular sahnamizga tashrif buyurishibdi.

1- o'quvchi:
To'rt tomonim bor mening,
Yana to'rttala burchak.
Viqorimga qarab bil,
Nomim mening to'rtburchak.

2- o'quvchi:
Tabiatdan izlama
Meni o'zing yasab ol,
Yasa sandiq, quticha,
Javon, mashina, uy sol.

3- o'quvchi:
Yana nega kerakman,
Buni o'zing o'ylab top!
Yaxshilab razm solgin,
Men kerakli, hammabop!

4- o'quvchi:
Mening nomim jarangdor,
Uchburchakman, uchburchak,
Uch tomonli shaklman
Sanab ko'r, bor uch burchak.

5- o'quvchi:
Nelar uchburchak ekan,
Angla dono bo'lsang gar.
Uylar tomi va yana
Bilgil zalvorli tog'lar.

6- o'quvchi:
Shakllar malikasi
Men kerakli aylana.
Barcha joyda men shayman.
Yetar bo'lsam bir dona.

7- o'quvchi:
Bolalarga koptokman,
Hofizlarga doira,
Bayramlarda rangli shar,
Yana yasang nog'ora.

8- o'quvchi:
Turli mevalar chizing,
Polizda ham men hozir,
Choynak, soat, g'ildirak,
Globus, quyosh, patir...

Al-Xorazmiy:
Barakalla, donolar,
Zehningizga lol bo'ldim.
Ma'naviy meroslarim,
Ishonchli qo'lda, bildim!

O'quvchilar:
Algebra fani uchun,
Solgansiz asos, bobo!
O'zbek nomin tanitgan,
Siz xorazmlik daho!

Hisob-kitob ilmini
Va sirli raqam nolni,
O'nlik, birlik, kesmani,
Kashf etdingiz — bir asar.

Siz yaratgan asarlar,
Taratar nur ziyoni.
Yana ming-ming asrlar,
Lol qoldirsin dunyoni!

1- boshlovchi: — Bugungi fayzli davramizning aziz ishtirokchilari, shu bilan tadbirimiz o'z nihoyasiga yetdi.

2- boshlovchi: — Barchangizga faol ishtirokingiz va e'tiboringiz uchun tashakkur aytamiz! Xayr, salomat bo'ling!

YER — QUYOSH SISTEMASIDAGI SAYYORA

Tadbir maqsadlari:

ta'limiy: quyosh sistemasidagi sayyoralar va osmon jismlari haqida tushuncha berish;

tarbiyaviy: ona tabiatning inson hayotidagi ahamiyati, ona yerimizning har bir qarich tuprog'ini qadrlash hissini singdirish;

rivojlantiruvchi: o'quvchilarning osmon jismlari va tabiat sirlariga qiziqishini oshirish orqali fikrlash doirasini kengaytirish, og'zaki nutqini rivojlantirish, topqirlik ko'nikmalarini shakllantirish.

Tadbir jihozlari: «Sirli koinot»ni shakllantirish uchun ustunlar, Oy, Quyosh, yulduzlar maketlari, globus, xarita, tabiatshunoslikka oid kitoblar, vatman, marker, rangli qalamlar, o'quvchilar tayyorlagan osmon jismlari maketlari, ekran, proyektor va Yer, Oy, Quyosh rangiga hamohang kiyimlar va shiorlar.

Tadbir shiori: Tabiat bizniki, uni asraylik!

Tadbirning borishi

(Zal Oy, Quyosh, yulduzlar maketlari, globus bilan bezatiladi. Yulduzlar qizg'ish, sarg'ish va ko'kimtir ranglarda tayyorlanadi. Sahnada «Yulduzli osmon» hosil qilinadi).

Tadbirni o'qituvchi ochadi:

— Assalomu alaykum, aziz ustozlar, qadrli ota onalar! Farzandlarimizning jismonan va ma'nan sog'lom, ijodiy va intellektual salohiyatli hech kimdan kam bo'lmaydigan komil shaxs sifatida hayotga kirib borishi uchun yanada keng imkoniyatlar yaratib kelinmoqda.

Zo'r ishtiyoq ila tahsil olayotgan o'quvchilarimiz darslari davomida Quyosh, Oy, sayyoralar haqidagi ma'lumotlarni qiziqish bilan o'rganishdi. Ularning bilimini sinash maqsadida bellashuv tashkil etdik. Bugungi bellashuvimizda ishtirok etayotgan guruhlar quyidagicha nomlanadi:

4- «A» sinf — **«Yer».**

4- «B» sinf — **«Quyosh».**

4- «D» sinf — **«Oy».**

(Guruh ishtirokchilari olqishlar ostida sahnaga kirib keladi. Ishtirokchilar guruhlarining nomiga mos: «Yer» guruhi ko'k va yashil rangdagi globussifat bosh kiyimda, «Quyosh» guruhi

sariq yaltiroq, «Oy» guruhi esa oq-yaltiroq libos va bosh kiyimda kirib kelishadi).

O'qituvchi: — Endi bellashuv shartlari bilan tanishing:

1- shart: «Tanishuv».

2- shart: «Tezkor savol-javob».

3- shart: «Sirli koinot».

4- shart: «Amaliy mashg'ulot».

5- shart: «Pantomimika».

Shartlar tafsiloti bilan bellashuv davomida tanishtirib boramiz. Shartlar bo'yicha baholar e'lon qilinganidan so'ng sardorlar «Yulduzli osmon» sari yo'l oladilar va to'plagan ballari miqdorida yulduzlar olib qaytadilar.

1- shart: «Tanishuv».

Qatnashchilar guruhlari nomini izohlab beradilar, she'rdan foydalanish mumkin.

«Yer» guruhi:

1- o'quvchi: — Yer — quyosh sistemasida hayot mavjud bo'lgan yagona sayyora. Uning diametri 12 800 km. Ekvator uzunligi, ya'ni Yer sharining qoq o'rtasidan o'tgan aylana — 40 000 km.

2- o'quvchi: — Yer Quyosh atrofini bir marta aylanib chiqishi uchun 365 sutka 6 soat vaqt ketadi. Yer shari barcha narsalarni o'ziga tortadi.

3- o'quvchi: — Dunyoning siyosiy xaritasida O'zbekiston hududi alohida ko'zga tashlanib turadi. Mamlakatimiz yer maydoni 448 900 kv. km.ni tashkil etadi.

4- o'quvchi: — O'lkamiz tabiati g'oyat go'zal, shaharlari juda maftunkordir. Go'zal tabiatni asrash har birimizning muqaddas burchimiz!

«Quyosh» guruhi:

1- o'quvchi: — Quyosh yog'du sochib turgan yulduzlardan biri. Yulduzlar qanday holatda bo'lsa, Quyosh ham shunday holatdadir. Quyosh sarg'ish rangli, o'rtacha kattalikdagi yulduz hisoblanadi.

2- o'quvchi: — Quyosh nuri Yerga 8 minutda yetib keladi. Uning sirtidagi harorat +6 000 C^0 daraja atrofida bo'ladi. Quyoshning diametri Yernikidan 109 marta katta.

3- o'quvchi: — Quyosh atrofida 8ta sayyora aylanadi. Ular Merkuriy, Venera, Yer, Mars, Yupiter, Saturn, Uran, Neptun.

4- o'quvchi: — Quyosh bepoyon olamga tinimsiz yorug'lik taratib turadi. Yer yuzida hayotni Quyoshsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

«Oy» guruhi:

1- o'quvchi: — Sayyora atrofida doimiy aylanib yuradigan yirik osmon jismi tabiiy yo'ldosh deyiladi, Yer sayyorasining yo'ldoshi Oydir.

2- o'quvchi: — Oy Yer atrofini 27 kun-u 8 soatda bir marta aylanib chiqadi. Uning diametri 3 500 km, ya'ni yernikidan 4 marta kichik.

3- o'quvchi: — Oyning Yerdan uzoqligi 384 400 km. Oy yumaloq sharga o'xshaydi. Sirti Yernikiga o'xshamaydi. Unda o'simliklar ham, hayvonlar ham yo'q, jonsiz tabiat hukmron.

4- o'quvchi: — «Oyning o'n beshi qorong'u, o'n beshi yorug'», degan xalq maqolini eshitgansiz. Bu haqiqat. Chunki oyning charog'onligi 15 sutka davom etadi.

2- shart: «Tezkor savol-javob».

Bu shartda guruh qatnashchilarining har biriga savol beriladi. Tez va to'g'ri bergan javoblar inobatga olinadi.

«Yer» guruhi uchun savollar:

1. Dunyo bo'yicha sutemizuvchilarning necha turidan bittasi yo'qolib bormoqda? *(Har beshtadan biri).*
2. O'rmonlarning ayovsiz kesib yuborilishi qanday natijaga olib keladi? *(Hayvonot olamining qirilishiga).*
3. Hayvonot olamining qirilib ketishi oqibatida nima bo'ladi? *(Insonlar kasallanadi).*
4. Ilk ekolog olim kim? *(E.Gekkel).*
5. Orol dengizi kattaligi bo'yicha dunyoda nechanchi o'rinda turadi? *(4).*

«Quyosh» guruhi uchun savollar:

1. Yerni ifloslanishdan saqlash uchun biz nimalar qilishimiz mumkin? *(Axlat va chiqindilarni kamroq tashlash).*
2. Qaysi turdagi chiqindilarni qayta ishlatish mumkin? *(Qog'oz, oziq-ovqat chiqindilari).*
3. Yerga tushadigan eng xavfli narsa nima? *(Zararli moddalar).*
4. Yerga tashlangan qog'oz qanchada chirib ketadi? *(2 oyda).*
5. Yerga tashlangan selofan xaltalar qanchada chirib ketadi? *(200 yilda).*

«Oy» guruhi uchun savollar:

1. Gulxan tagida yongan yerning 1 sm. tuproq qavati qanchada tiklanadi? *(100 yilda).*

2. Inson uchun zararli bo'lgan qo'ziqorinlarni nima qilish kerak? *(Hayvon va qushlar yeyishi mumkin).*

3. Yerga tashlangan konserva bankasi qanchada chiriydi? *(30 yilda).*

4. Yerdagi suvning necha foizi ichimlik suvini tashkil etadi? *(1%).*

5. Odam suvsiz qancha yashay oladi? *(5 kun).*

3- shart: «Ona yerni asraylik!»

(Uchala guruhga umumiy muammo beriladi. Har bir guruh ushbu muammoning yechimini birgalikda muhokama qilib, keyin eshittiradilar va rasmda ifodalab beradilar).

Muammo: faraz qilaylik, uyda suv yo'q. Ya'ni 1 chelak (10 l) suv faqat 1 kunga yetadi. Uyda har kunlik yumushlarni qanday bajarish mumkin?

1. Ertalab yuvinishda nima qilamiz? (1 stakan suvga tishni yuvib, yana 1 stakan suvga yuvinish mumkin).

2. Choy ichganda nimaga ahamiyat berish kerak? (Shirin choyni kamroq ichish, suyuq ovqatni ko'proq yeyish va piyolada choy qoldirmaslik).

3. Ovqat tayyorlayotganda nima qilish mumkin? (Sabzavotlarni artgandan so'ng kichik tog'orachaga solib, suvda yuvish. Sabzavotlar yuvilgan suvni xona gullari tagiga yoki hovli, ko'chalardagi daraxt tagiga quyish kerak).

4- shart: «Amaliy mashg'ulot».

(Bu shartda o'quvchilarning xarita va globus bilan ishlash ko'nikmalari tekshiriladi. Guruh qatnashchilaridan biri xaritadan berilgan topshiriqni bajaradi).

1- topshiriq: O'zbekiston bilan chegaradosh mamlakatlarni ko'rsating.

2- topshiriq: Globusdan foydalangan holda materiklar nomini yozing.

5- shart: «Pantomimika».

(Bu shartda mavzular e'lon qilinadi. Guruh a'zolari kelishgan holda mavzu tanlashadi va bir ishtirokchi belgilangan vaqt mobaynida kartotekalarda yozilgan so'zlarni pantomimika orqali tushuntiradi. O'quvchilar to'g'ri topgan so'zlar hakamlar tomonidan hisoblab boriladi).

Hakamlar tomonidan shartlar davomida «Yulduzli osmon»dan yig'ilgan yulduzlar sanaladi. Eng ko'p yulduzga ega g'olib guruh rag'batlantiriladi.

Tadbir so'ngida maktab direktori va ota-onalarga so'z beriladi.

O'qituvchi: — Aziz ustozlar, hurmatli ota-onalar! Bellashuv davomida o'quvchilarimizning osmon hodisalari va tabiat sir-sinoatlariga qiziqishlari nechog'lik baland ekaniga guvoh bo'ldingiz. Shu tirishqoq, ilmga chanqoq bolajonlarimiz yillar davomida o'qib-o'rganib, izlanib, bu bilimlarini yanada kengaytirib, boyitib borishlariga umid qilamiz. Kelajakda ulardan Vatanimiz koriga yaraydigan yaxshi kadrlar, buyuk ajdodlarimiz Ulug'bek, Beruniy, Xorazmiy izdoshlari yetishib chiqishiga ishonamiz.

MUNDARIJA

1- oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni
«Ey mehribon, aziz ustoz, sizga ta'zim, sizga e'zoz!»..... 3
21- oktabr — «O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida» qonuni qabul qilingan kun
Ona tilim — qalbim quyoshi..... 7
8- dekabr — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni
Qomusimiz — baxtimiz..... 12
14- yanvar — Vatan himoyachilari kuni
Bizlar kichik askarlar..... 18
Kelajakda askar bo'lamiz, qo'riqlaymiz ona vatanni!..... 21
9- fevral — Alisher Navoiy tavallud topgan kun
Buyuk zotga ta'zim..... 26
14- fevral — Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun
Shoh va shoir..... 31
1- mart — shoira Zulfiya tavallud topgan kun
She'r tinglab, she'r tuzib — she'rlarda qoldim..... 35
8- mart Xalqaro xotin-qizlar kuni
Jannat — onalar oyog'i ostida..... 41
21- mart — Navro'z umumxalq bayrami
Birni kessang, o'nni ek..... 46
9- aprel — Amir Temur tavallud topgan kun
Sohibqiron yodimizda..... 50
9- may — Xotira va qardlash kuni
«Xotira — muqaddas, xotira — abad!»..... 56
Xotira aziz, qadr muqaddas..... 60
Ona vatan — aziz!..... 64
Fanlar shousi
Matematika — fanlar shohi..... 68
Bellashuv
Yer — quyosh sistemasidagi sayyora..... 74

Bayramlar va tadbirlar ssenariysi (3-4-sinflar uchun) [Matn : uslubiy qo'llanma/tuzuvchi Sh.Vosiqova. - Toshkent: BAYOZ, 2016. — 80 bet.

ISBN 978-9943-4643-0-8

UO'K: 37.014.74
KBK 74.200.58

BAYRAMLAR VA TADBIRLAR SSENARIYSI

(3—4- sinflar uchun)

Mazkur risolani tuzishda M.Qutliyeva, M.Ahmedova, O.Mardiyeva, D.Ergasheva, S.Sunnatova, Sh.Aliyorova, R.Yo'ldosheva, G.Egamberdiyeva, Sh.Rajabova, B.Xolmo'minova, Z.Atamurodova, O'.Mardiyeva, M.Nurmatova, B.Cho'liyeva, P.Xudoyberganova, S.Abdullayeva, M.Shodiyeva, S.Sobirova tayyorlagan ssenariylaridan foydalanildi.

Muharrir: *N.To'xliyeva*
Dizayner: *B.To'xliyev*
Sahifalovchi: *B.Jontemirov*

Nashriyot litsenziyasi: AI №234, 11.02.2013
Bosishga ruxsat etildi: 26.02.2016. Ofset qog'oz.
Qog'oz bichimi: 84x108 $^1/_{32}$. "Pragmatic Uz" garniturasi.
Hisob nashriyot t.: 3,3. Shartli bosma tabog'i.: 5.
Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 9.

«BAYOZ» nashriyotida nashrga tayyorlandi.

«BAYOZ» MChJ matbaa korxonasida chop etildi.
100100, Toshkent. Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy.